M.A.ABJALOVA

# O‘ZBEK TILIDAGI PARONIM SO‘ZLAR LUG‘ATI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABJALOVA MANZURA ABDURASHETOVNA

# O‘ZBEK TILIDAGI PARONIM SO‘ZLAR LUG‘ATI

Termiz – 2022

**UO‘K: 811.512.133(038)**
**KBK: 81.2O‘zb-4**
**A 16**

**Abjalova, Manzura**
O‘zbek tilidagi paronim so‘zlar lug‘ati. [Matn]: o‘quv-uslubiy lug‘at / M.Abjalova – Termiz: ..., 2022. – 64 b.

Mazkur yangi avlod lug‘ati 561 paronim juftlikni o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi muloqot jarayonida talaffuzdosh so‘zlarning tavsifini aniqlashda ta'limiy ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur lug‘atda jamlangan ma'lumotlar tarjimon dasturlarini yaratishda, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da, o‘zbek nutq sintezatori va nutqni tanish dasturining lingvistik bazasini yaratish hamda lingvistik modellarini ishlab chiqish, avtomatik tahlil dasturlarini yaratishda qimmatli leksikografik manba sifatida xizmat qiladi.

Lug‘at o‘quvchilar uchun zarur o‘quv qo‘llanma bo‘lishi bilan birga, suxandon va jurnalistlar nutq madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etiladigan qayta tayyorlov kurslari uchun uslubiy ko‘rsatmalar, kompyuter lingvistikasi hamda medialingvistikaga oid monografik tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, ma'ruza matnlari, seminar va amaliy mashg‘ulot materiallari va laboratoriya topshiriqlari tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mas'ul muharrir:** **Mengliyev B.R.**
Filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:** **Dadaboyev H.A.**
Filologiya fanlari doktori, professor
**Abdurahmonova M.**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Lug‘at Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2021-yil 27-iyuldagi 9-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-7870-6-3

© Abjalova Manzura Abdurashetovna
© TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti.

# SO‘ZBOSHI

Ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda ijtimoiy tarmoqda muloqot va faoliyatning ommalashishi keyingi yillarda yangi avlod o‘quv lug‘atlarini yaratish zaruriy talab va ehtiyojga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish, o‘zbek tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 5-bandida o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha turlari uchun o‘quv lug‘atlarini yaratish choralarini ko‘rish vazifasi belgilab berilgan bo‘lib, mazkur lug‘at uning ijrosini ta’nimlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tili paronim so‘zlarining mazkur lug‘atini shakllantirish quyidagi tizim va yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

– xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishda;

– ta’lim tizimida talaffuzdosh so‘zlar tavsifini o‘rganishda;

– badiiy asarlarni yozish jarayonida tarixiy, adabiy va hatto istorizm hamda arxaizmlarga aylangan talaffuzdosh so‘zlardan o‘rinli foydalanishda;

– ilmiy tadqiqotlarda paronimlar etimologiyasini aniqlashda ularning manba tilini topish uchun;

– suxandon, notiq va jurnalistlar nutqida talaffuzdosh so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi ko‘nikmasini shakllantirishda;

– ta’lim jarayonida o‘quvchilar nutqida paronimlarning nutqda to‘g‘ri talaffuz qilinishiga erishish uchun;

– tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da;

– avtomatik tarjima, nutq sintezatori va nutqni aniqlash dasturlarining lingvistik ta’minotlari uchun audioma’lumotlar bazasini yaratishda;

– lingvistik ontologiya va kiberleksikografiyani yaratishda muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Lug'atning yangi formatda tuzilishi va tarkibi yangilanishi o'zbek leksikografiyasining yangi avlodi sifatida xizmat qiladi.

## Paronimlar haqida

Chiroyli so'zlash, ta'sirchan gapirish va to'g'ri yozish – ma'naviy qadriyatlarning alohida ahamiyatga ega bo'lgan turi. Yoqimli, shirali, bejirim so'zlash va yozish tinglovchi va o'quvchining ham, so'zlovchi va yozuvchining ham ma'naviyatini ko'rsatuvchi qadriyatdir. Nutqqa ifodaviylik, go'zallik, ta'sirchanlik baxsh etadigan lisoniy omillardan biri paronimlardir.

Paronim so'zi tarkibidagi yunoncha "*para*" – yaqin, yaqinidagi, yondosh, o'xshash, "*onuma*" – nom degani. Aristotel taklif qilgan paronim atamasi dastlab *otalik – otaliq, bo'shlik – bo'shliq, bolali – bolalik* tarzidagi yasama so'z va so'zshakllarga nisbatan qo'llanilgan. Bu kabi so'zlarning asosidan so'nggi qo'shimchalar ma'no farqlash vazifasini bajaradi va nutqda talaffuz o'xshashligini hosil qilgan.

Talaffuzdoshlik – fonetik jarayon. Talaffuzda so'zlarning yaqin, o'xshash, bir-biriga to'la, qisman o'xshatib aytilishi tufayli lafziy uyadoshlik qatori hosil bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda paronim deb ataluvchi "uyadosh" so'zlar qatori turlicha ta'riflangan: "Paronimlar talaffuzning o'xshashligi, morfem sostavining qisman yaqinligi tufayli yozuvda, nutqda adashtirilishi mumkin bo'lgan, qofiyalashda, shuningdek, so'z o'yinida ishlatiladigan boshqa-boshqa ma'nodagi so'zlardir"[1], "faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlar"[2].

Paronim – talaffuzi birbiriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'z. Masalan, **asr** va **asir**, **afzal** va **abzal**, **sher** va **she'r**, **adib** va **adip** kabi so'z talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishda farq qiladi. Ma'nosi ham butkul boshqaboshqa. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan dubletdan farqlash kerak: **arava – aroba, bekik – berkik, benihoya – benihoyat, gado – gadoy** kabilar paronim emas, balki dublet, variantdosh so'zlardir.

Paronim talaffuz jihatdan o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun, undan badiiy adabiyotda qofiya sifatida keng foydalaniladi.

---

[1] А.Маъруфов. Паронимлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.5.

[2] Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – B.176–177.

Umuman, paronimlar lisoniy va nutqiy jihatdan o‘rganishga, tadqiq qilishga muhtoj mavzu. Chunki paronimlar uslubiy xilma-xil ma’nolarni, bo‘yoq va nutqiy go‘zallikni ta’minlovchi so‘zlar guruhi sanaladi.

**Lug‘atning tuzilishi**

XXI asrda tilni o‘rganishda lingvistik ontologiya, tezaurus, elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima, axborot-qidiruv tizimlari, til korpuslari asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun har qanday lisoniy birlik, hodisa haqida gap ketganda uning elektron ko‘rinishi, axborot texnologiyalarida foydalangan holda uni o‘rgatish, targ‘ib qilish ham nihoyatda muhim. Zamonaviy lug‘atshunoslikda har qanday lug‘at tuzilganda uning axborot texnologiyalari uchun lingvistik ta’minot vazifasini ham o‘tashini hisobga olishni taqozo etadi. Shu sababli paronimlar lug‘atini tuzishda bu jihatlar hisobga olindi.

1. Tildagi paronimlar aniqlanib, ularning juftligi belgilangach, juftlikning bosh so‘zi alifbo tartibida berildi.

2. Paronimik juftlikdagi bosh so‘z va unga o‘xshash so‘zni belgilashda o‘xshatib talaffuz qilinuvchi so‘z so‘nggi, o‘z holicha talaffuz qilinadigani bosh so‘z sifatida berildi: *sher – she’r; qisim – qism, azim – azm, ahil – ahl, paqir – faqir, pol – fol, xol – hol, mart – mard, naq – naqd.*

3. *-li* va *-lik* qo‘shimchali so‘zlar nutqda, xususan, qarluq lahjasida ba’zan farqlanmay qo‘llanishi, uslubiy va mazmuniy xatolar yuz berayotganligi inobatga olinib, yasama so‘zlarning paronimik juftlik hosil qilayotganligi bois ayrim namunalar berildi.

4. *-lik* va *-liq* qo‘shimchali yasama so‘zlar ham paronimik juftlik hosil qiladi. Lekin barcha so‘zlarda emas.

5. Ikki, uch bo‘g‘inli so‘zlarning tarkibidagi unli tovushlar nutqda bir-biriga o‘xshatib talaffuz qilinishi e’tiborga olinib, o‘xshab talaffuz qilinishi uchun asos bo‘lgan so‘z bosh so‘z sifatida, o‘xshatib talaffuz qilingan so‘z so‘nggi a’zo sifatida berildi.

6. Undosh tovushlarning talaffuzi bilan bog‘liq talaffuzdosh holatlar nutqda ko‘p uchrashi tufayli bunday juftliklarda ko‘pchilikning nutqiga xos lafziy holatdagi so‘z bosh so‘z tarzida, unga o‘xshatib aytiladigan so‘z ikkinchi so‘z maqomida berildi.

7. Har bir paronimik juftlikning bosh harf bilan yozilgan shaklidan so‘ng bosh so‘z va unga to‘la, noto‘la, qisman, sal o‘xshatib talaffuz qilinadigan so‘zning har biriga ma’noviy izoh berildi. Izoh bosh harf bilan boshlandi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning barcha ma’nolari emas, eng muhim, asosiy ma’nolari qayd etildi va ular nuqtali vergul bilan ajratildi.

8. Talaffuzi yaqin juftlikning har ikkalasi yoki biri ajralmas birikma tarkibida qo'llansa, avval talaffuzdosh so'zlar yozilib, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, so'ngra o'sha birikma keltirildi va izohi bosh harf bilan boshlandi.

## O‘zbek tilidagi paronim so‘zlar lug‘ati

| 1-so‘z | izohi | 2-so‘z | izohi |
|---|---|---|---|
| ABAD | [a.] Oxiri yo‘q zamon, mangulik; mangu, umrbod. | OBOD | [f.] Gullab yashnagan; farovon. |
| ABGOR | [f.] Yomon ahvolga tushib qolgan; nochor, xarob. | AFKOR | [a.] Fikr, fikrlar. |
| ABONENT | [fr.] Abonementga ega bo‘lgan shaxs, tashkilot. | ABONEMENT | [fr.] Foydalanish huquqini beradigan hujjat. Abonement olmoq. |
| ABZAL | [f.] Ot-ulovni minish yoki aravaga qo‘shish uchun zarur bo‘ladiga jihozlar. | AFZAL | [a.] Yaxshi, a'lo, ortiq: ustun. |
| ACHIPTI | oshiq o‘yini turi | ACHIBDI | (qatiq) achibdi |
| ADABIY | Badiiy adabiyotga oid; yozuvchilik faoliyatiga oid. | ABADIY | Mangu, doimiy. |
| ADABIYOT | [a.] Xalq asarlari majmui; til vositasida yaratilgan asarlar majmui; asar, kitob. | ABADIYAT | [a.] Abadiylik, mangulik. |
| ADIL | [a.] To‘g‘ri, egilmagan, bukilmagan, tikka; burilmagan, to‘ppa-to‘g‘ri. | ADL | [a.] Adolat, odillik. |
| ADIL | [a.] To‘g‘ri, egilmagan, bukilmagan, tikka; burilmagan, to‘ppa-to‘g‘ri. | ODIL | [a.] Biror tomonga yon bosmay, qonun, adolat yuzasidan xolisona, haqqoniy ish tutadigan; adolatli, to‘g‘ri. |
| ADIP | Ko‘rpa, to‘n kabilar chetiga tutilgan ensiz mato; mag‘iz. | ADIB | [a.] Adabiy asar yozuvchi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ADRESAT | [nem.] Xat, telegramma va boshqa jo'natilgan narsalarni qabul qiluvchi kishi yoki tashkilot. | ADRESANT | [nem.] Pochta orqali xat, telegramma va shu kabi narsalarni jo'natuvchi kishi yoki tashkilot. |
| AFSUN | [f.] Jodu; sehr. | AFZUN | [f.] Ortiq, ziyoda, ko'p. |
| AHIL | [a.] Ittifoq, inoq, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan. | AHL | [a.] Bir soha, kasb odamlari; bir joyda yashovchilar. |
| ALAM | [a.] Jismoniy yoki ruhiy azob, og'riq; iztirob; o'ch; nafrat. | A'LAM | [a.] Eng bilag'on, katta olim; shariat qonunlari bilimdoni. |
| ALAMON | olomon | AL'AMON | omonlik uchun murojaat |
| ALIF | [a.] Arab alifbosida a, o tovushlarini ifodalovchi tik chiziqqa o'xshash harf. | OLIF | [r.] Yog'och, taxtaga surtiladigan, yog'simon qurilish bo'yog'i. |
| ALIFBE | [a.] Savodxonlik darsligi. | ALIFBO | [a.] Tildagi harflarning ma'lum tartibda joylashgan tizimi. |
| ALLO | Telefon qo'ng'irog'iga ilk javob so'zi | A'LO | eng yuqori |
| ALPOZ | Ahvolda, tarzda. | ALFOZ | [a.] So'z, so'zlar, iboralar. |
| AMMA | [a.] Otaning opasi yoki singlisi. | AMMO | [a.] Qo'shma gap qismlarini zidlash munosabati bilan bog'laydi; lekin, biroq. |
| AMR | buyruq, farmon | AMIR | podsho, xon |
| ANGOR | [f.] Kishining yuzi va tashqi qiyofasi. | ANGAR | [fr.] Samolyot, vertolyotlar turadigan va ta'mir qilinadigan bino. |
| ANTOLOGIYA | [yun.] Turli mualliflarning tanlangan asarlari to'plami. | ONTOLOGIY | [yun.] Falsafaning borliq, uning *tamoyillari*, asoslari, tuzilishi va qonuniyatlari *haqidagi* bo'limi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ARIQ | Sun'iy ravishda hosil qilingan suv yo'li, o'zani va undagi suv. | ORIQ | Ozg'in. |
| ARQON | Jun, ipdan eshib tayyorlangan buyum, arg'amchi. | ARKON | [a.] esk. kit. Ulug' martaba egalari, katta amaldor, arboblar. |
| ARTMOQ | Latta yo boshqa narsa bilan tozalamoq, namini quritmoq. | ARCHMOQ | Shilib ajratmoq, po'stini olib tashlamoq. |
| ASIL | [a.] A'lo sifatli, eng yaxshi; qimmatbaho. | ASL | [a.] Haqiqiy hol; tub negiz; ko'rinish. |
| ASIR | [a.] Dushman qo'liga mahbus bo'lgan kishi; maftun, shaydo. | ASR | [a.] Yuz yillik davr; quyosh botishidan bir soatcha oldingi payt, shu paytda o'qiladigan namoz. |
| ASKIYA | [a.] O'zbek xalq og'zaki ijodining so'z o'yiniga, qochiriqlarga asoslangan janri. | AKSIYA | [fr.] Aksiyadorlik jamiyati chiqargan qimmatbaho qog'oz; biror maqsadga erishish uchun qilinadigan harakat. |
| ASORAT | [a.] Ozodlikdan mahrumlik; salbiy ta'sir; yomon oqibat. | AROSAT | [a.] din. Qiyomat kuni barcha odamzod tirilib, yig'iladigan qo'rqinchli dasht; shovqin-suron, qirg'in-barot. |
| AXIR | Oxiri, pirovardida, nihoyat; ma'noni kuchaytiradi, ta'kidlaydi. | OXIR | So'nggi nuqta, joy, vaqt; poyon. |
| AYLANMOQ | O'z o'qi yoki biror narsa atrofida harakat qilmoq. | AYNALMOQ | sh. folk. Mehribonlik ko'rsatmoq, o'rgilmoq. |
| AYON | [a.] Ma'lum; aniq-ravshan. | A'YON | [a.] Eng yuqori qatlamga mansub, baland martabali kishilar; amaldorlar. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| AZIM | [a.] Ulkan, katta. | AZM | [a.] Qasd, qat'iy maqsad-intilish; qaror qilmoq. |
| AZON | [a.] Namozga chaqiriq; tong payti. | OZON | [r.] Kislorodning hidli gaz shaklidagi ko'rinishi. |
| BAD | yomon, yaramas | BA'D | keyin, so'ng |
| BAL | [r.] Bazm kechasi, raqs oqshomi. | BALL | [r.] Tabiiy hodisalar kuchini o'lchash birligi; o'quvchi va baholanadigan kishilar iqtidorini aniqlash tartibi. |
| BALI | [f.] Tortishmoq; gap qaytarmoq. | BALLI | [f.] Ma'qullash, tahsin ma'nosini bildiradi. |
| BANDA | [f.] Olloh yaratgan odam. | BANDI | [f.] Asir tushgan, asir qilib olingan odam; tutqin. |
| BANK | [fr.] Pul mablag'larni to'plash, sarflash, korxonalarga kredit (qarz) berish, naqd pulsiz hisob qilish, kredit mablag'larini muomalaga chiqarish kabi ishlar bilan shug'ullanuvchi kredit-moliya muassassasi. | BANKA | [r.] Shisha, tunuka yoki plastmassadan yasalgan idish. |
| BANT | [nem.] Qizlar sochiga bog'lanadigan lenta; tasma. | BAND | [f.] Dasta; bo'g'im; modda, paragraf; bog'lam; egallangan. |
| BARI | Bir turdagi narsa, hodisa yoki kimsalarning barchasi. | BORI | Hammasi bo'lib; bor-yo'g'i, atigi, bo'lgani. |
| BARMOQ | Qo'l va oyoq panjalari. | BORMOQ | Bir joydan harakatlanmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| BAS | Bo‘ldi, yetar; garov bog‘lashmoq; eng past, yo‘g‘on ovoz va shunday ovozli ashulachi. | BAHS | [a.] Munozara, tortishuv; musobaqa. |
| BAYON | [a.] Tabiat va jamiyat haqidagi tushuncha, tasavvur yuzasidan inson fikri va mulohazalarining og‘zaki hamda yozma ifodasi; tavsif; izoh berish; yozma ish. | BOYON | Boylar, badavlat kishilar. |
| BAZUR | bahuzur, bemalol | BAZO‘R | zo‘rg‘a |
| BEK | Qadimiy unvon, mansab. | BERK | Bekitib yoki to‘sib qo‘yilgan, yopiq. |
| BETON | [r.] Sement, qum, shag‘al aralashmasidan tayyorlangan qurilish materiallari. | BIDON | [r.] Suyuqlik solinadigan metall idish. |
| BIKR | iffatli qiz, bokira | BIKIR | baquvvat |
| BIRGA | Birgalikda; bir vaqtda, baravar; birlikda. | BURGA | Sakrab yurib qon so‘radigan, qanotsiz mayda hasharot hashorat. |
| BIRICH | sh. Misning qalay, alyuminiy, kremniy, berilliy, qo‘rg‘oshin elementlari bilan qotishmasi, bronza. | BIRINCH | [f.] Guruch. |
| BIROV | Kimdir, noma’lum kishi. | BIRROV | Birpas, bir zum; juda qisqa vaqtda. |
| BITAMOQ | O‘yiq yo kemtik devorni tuzatmoq. | BUTAMOQ | Shox-shabbalarni kesmoq; tuzmoq, bezatmoq. |
| BITLAMOQ | Bit bosmoq, biti ko‘paymoq. Boshi bitlab ketibdi. | BUTLAMOQ | Chalasini, kamini to‘ldirmoq; birlashtirmoq. |
| BIYRON | so‘zamol, gapdon | BIRON | biror |

| | | | |
|---|---|---|---|
| BO‘G‘IM | bot. Poya va novdaning barg, kurtak hosil qiladigan qismi. | BO‘G‘IN | tilsh. So‘zning alohida talaffuz qilinadigan qismi. |
| BO‘G‘OT | Tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi; suvbandi. | BOG‘OT | [f.] Bog‘-rog‘, daraxt va boshqa narsalar ko‘kartirilgan joy, hayat. Bog‘otga ko‘chib o‘tmoq. Bog‘otda yashamoq. |
| BO‘KMOQ | Ovqatni meyordan ko‘p yemoq; namiqib shishmoq. | BUKMOQ | Buklamoq; qayirmoq, egmoq. |
| BO‘SHLIK | Bo‘shanglik, lapashanglik; pishiq emaslik; ichida hech narsa yo‘qlik. | BO‘SHLIQ | Fazo, olam; bo‘sh joy. |
| BO‘TA | Tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi, bo‘taloq. | BUTA | [f.] Tagidan shox chiqarib o‘sadigan mayda daraxt. |
| BO‘TAMOQ | Aralashtirmoq, chuvalashtirmoq. | BUTAMOQ | Daraxtning keraksiz shox-shabbalarni kesmoq. |
| BO‘YLAMOQ | Bo‘yi bilan o‘lchamoq; yoqalab bormoq. | BOYLAMOQ | Bog‘lamoq. |
| BOP | [f.] To‘g‘ri keladigan, munosib; talab darajasida, ijobiy. | BOB | [a.] Yozma asarning qismi, bo‘lagi, fasli; davr; usul. |
| BOPLAMOQ | Ko‘ngildagiday qilib bajarmoq, o‘rinlatib bajo qilmoq; pand bermoq; ta’zirini bermoq. | BOBLAMOQ | Asarni boblarga ajratmoq. |
| BORLIK | Mavjudlik; boylik; to‘qlik. | BORLIQ | Inson ongi va sezgisidan *tashqaridagi* obyektiv *dunyo, mavjudot; vujud; barcha,* hamma. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| BOT | Oradan ko‘p vaqt o‘tmay; tez; yana. | BOD | [f.] Shamol; bo‘g‘in va mushaklarning yallig‘lanishi. |
| BUQA | yosh erkak qoramol | BUQ'A | madrasadagi hujra |
| BURCH | Majburiyat vazifa, bajariladigan topshiriq; chekka, chet. | BURJ | [a.] Yulduzlar majmui; qal'a minori. |
| BURG‘I | parma | BURG‘U | qadimgi cholg‘u asbobi |
| BURIL | burilmoq | BURUL | xoldor (ot) |
| BUT | To‘liq, raso; ikki oyoq orasi, chot; sanam. | BUD | [f.] Bor narsa, bor-yo‘g‘i. |
| BUYOQ | Buyon, beri; boshlab. | BO‘YOQ | Bo‘yoq Bo‘yash moddasi, kraska. |
| CHAKKA | Bosh suyagining yonoq va peshona oralig‘idagi yon qismi; tomchi; mutlaqo, hech. | CHAKKI | Yomon, qoniqarsiz; nojo‘ya; bekor; suzma. |
| CHAKKA | Bosh suyagining yonoqlar bilan peshona oralig‘idagi yon qismi; tomchi; mutlaqo, hech. | CHEKKA | Narsalarning, joyning o‘rta qismiga, markaziga nisbatan eng cheti, chetki tomoni; qirg‘oq, chet. |
| CHALG‘I | Uzun dastali katta o‘roq. | CHOLG‘U | Musiqa asbobi. |
| CHANQAMOQ | Suvga tashna bo‘lmoq, suvsamoq; sog‘inmoq. | CHAQNAMO Q | Yorqin nur sochmoq; yarqiramoq; yorishmoq; yashnamoq. |
| CHANQOQ | Suvga tashna, suvsagan; zor, mushtoq. | CHAQNOQ | Yarqiroq; nurli, yorqin. |
| CHAPIQ | Devor yuzasini tekislash uchun qilinadigan dastlabki suvoq. Chapiq qilmoq, Chapiq suvoq. | CHOPIQ | O‘simliklarning tagi, yon-atroflarini chopib yumshatish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| CHAQMOQ | Yashin; o‘t oldirish asbobi; qimmatbaho telpak; qandning har bir bo‘lagi; jarohatlamoq; po‘choqli mevani urib yormoq. | CHAQNOQ | Chaqnab turgan; yarqiroq; nurli, yorqin. |
| CHARQ | Ikki narsaning urilishidan hosil bo‘lgan ovoz; ko‘zning harakati turi. *Ko‘zi charq ochilmoq. Charq etgan ovoz.* | CHARX | Ip yigiradigan dukli asbob; parrak; qayraydigan asbob; aylana. |
| CHERTMAK | Ko‘zini ikki qo‘li bilan yashirib, chertgan o‘yinchi ko‘rsatgan barmog‘ini topish o‘yini; ohang, ritm. | CHERTMOQ | Barmoq bilan urib, past, keskin ovoz chiqarmoq, taqillatmoq, barmoqlar bilan zarb berib chalmoq. |
| CHETKI | Chekka tomondagi, chet tarafda, chetda joylashgan. | CHERTKI | O‘rta barmoq uchini ichkariga qayirib, bosh barmoqqa tegizib, so‘ng kuch bilan itarib beriladigan zarba. |
| CHILLIK | O‘yin qartasining qora rangli, uchburchak shakldagi turi. | CHILLAK | [f.] Bolalar o‘yini va o‘yin cho‘plari. |
| CHILT | Ishlatilmagan, kiyilmagan (narsa, buyum). | JILD | [a.] Biror narsa ustidan kiydiriladigan, qoplab qo‘yiladigan g‘ilof; tom. |
| CHO‘CHITMOQ | Qo‘rqitmoq; hadiksiratmoq. | CHUCHITMOQ | sh. Yog‘ni dog‘ qilmoq. |
| CHO‘PON | Yaylovda mayda mol boquvchi kishi. | CHOPON | Ustki uzun qavilgan kiyim; to‘n. |
| CHOG‘ | Xursand; vaqt, payt; kichkina; tor. | CHOH | [f.] Chuqur o‘ra, quduq. |
| CHORTOQ | [f.+a.] Hashamatli bino, qasr. | CHORDOQ | [f.+a.] Tom bilan ship oralig‘idagi bo‘sh joy; cherdak. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| CHUCHIMOQ | (meva, poliz mahsulotlari) Shiraga kirmoq, shirin ta'mli bo'lmoq. | CHO'CHIMOQ | Tashqi yoki ichki ta'sirdan sapchib tushmoq; seskanmoq. |
| CHURUK | Eski, ko'hna; juldur, uvada. | CHIRIK | Chirigan, ishdan chiqqan, yaroqsiz holga kelib qolgan. |
| DALA | ekin ekiladigan joy | DARA | jarlik |
| DALIL | [a.] Dalolat beruvchi narsa, isbot. | DADIL | Dovyurak, jasur; mardonavor, shahdam; bardam, tetik. |
| DARS | [a.] Ta'lim muassalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. | DARZ | [f.] Yoriq, yorilgan; putur yetmoq, buzilmoq. |
| DART | Salbiy munosabatni bildiradigan so'z, koyish, qarg'ash. | DARD | [f.] Qiynalish, azob chekish, azob. |
| DASTMOL | [f.] Qo'l artadigan ro'molcha, dastro'mol; qozon-tovoq yuvishda ishlatiladigan sochiq. | DAZMOL | [f.] Qizdirib kiyim g'ijimini yozadigan metall asbob. |
| DAVO | [a.] Bemor shifo toshi uchun qo'llanadigan muolaja; tadbir chora. | DA'VO | [a.] Buzilgan haq-huquqini talab qilish yoki uni himoya etish haqida huquqni himoyalovchi tashkilotlarga qilinadigan murojaat; birovni ayblash. |
| DAVR | vaqt oralig'i | DOVUR | ot yopinchig'i |

| | | | |
|---|---|---|---|
| DIPLOMAT | [fr.] Mamlakatning chet eldagi rasmiy odami; portfel. | DIPLOMANT | [fr.] O‘quv yurtini bitirish diplomi ustida ishlayotgan talaba; musobaqa, tanlovda yutib chiqib, diplom bilan mukofotlangan kishi. Konkurs diplomanti . |
| DO‘ST | Do‘st [f.] Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki va undan ortiq kishining har biri, o‘rtoq; yaqin, tanish. | DUST | [r.] Hashoratlarni tez o‘ldiruvchi zaharli ximiyaviy dori. |
| DONA | [f.] Miqdor; don, urug‘; mayda zarra. | DONO | [f.] Aql-zakovatli, oqil, donishmand; oqilona. |
| DOR | [f.] O‘limga hukm qilingan kishini osib o‘ldiradigan qurilma; ikki xoda orasidagi arqon. | TOR | Ensiz; ko‘lami katta bo‘lmagan. |
| DOVON | Tog‘, tepalikning baland, ammo oshib o‘tsa bo‘ladigan qulay joyi; oshuv; ulkan ish. | DEVON | [f.] Muayyan bir shoirning alifbo sirasi bilan tartib etilgan she’rlari to‘plami; idora. |
| DUB | daraxt | DUP | tovushga taqlid |
| EGALLAMOQ | Ega bo‘lmoq; ishg‘ol qilmoq; o‘rnashmoq; o‘rganib olmoq. | EGARLAMOQ | Egar urmoq, egar qo‘yib minishga tayyor qilmoq. |
| EHZON | qayg‘u hukm surgan kulba | EHSON | xayrli ish |
| EKMOQ | Urug‘ni yerga sepmoq, tashlamoq; o‘simlik tupini, ko‘chatini o‘tqazmoq. | EGMOQ | Bukmoq, qayirmoq; o‘z izmiga bo‘ysundirmoq. |
| ELITMOQ | Uyqu tortganday, bo‘shashgan holatga tushmoq. | ERITMOQ | Mehr, moyillik hissi uyg‘otmoq; qattiq holdan suyuq holga keltirmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ELLIK | son | ENLIK | ikki enlik (xat) |
| ELTMOQ | Olib bormoq, tashimoq; sig'dirmoq; ketmoq. | ELITMOQ | Bo'shashmoq, lanj bo'lmoq. |
| EM | Dori-darmon va shifobaxsh narsa; kasalliklarning oldini olish maqsadida teri orqali qilinadigan davo. | EN | Narsalarning ko'ndalang kattaligi; bir kiyimlik gazlama; belgi, tamg'a; n harfining nomi. |
| EMMOQ | Emchak va so'rg'ichdan sut so'rmoq; o'ziga sindirmoq, olmoq. | ENMOQ | Yuqoridan quyi tomon harakat qilmoq; tegmoq, qo'nmoq; paydo bo'lmoq. |
| ENMOQ | Yuqoridan quyi tomon harakat qilmoq; tegmoq, qo'nmoq; paydo bo'lmoq. Pastga enmoq. Tog'dan enmoq. | INMOQ | Qo'nmoq, o'tirmoq, paydo bo'lmoq. |
| ESSIZ | Es-hushi o'zida emas; xotirasi sust, hech narsani eslab qololmaydigan, nodon. | ESIZ | Achinish, afsuslanishni bildiradi; afsus, attang; uvol, xayf. |
| ETMOQ | Qilmoq, bajarmoq. | ELTMOQ | Tashimoq, olib bormoq, olib kelmoq. |
| FASOD | [a.] Yiring; ig'vo, fitna. | FASAD | [fr.] arx. Binoning old tomoni. |
| FAZO | [a.] Osmon, koinot. | FAZA | [yun.] Biror hodisa, jarayonning rivojlanishidagi payt, muddat; bosqich; generator o'ramasiga ulangan elektr simlar. |
| FERMA | [fr.] Xo'jalikning biror sohasi bilan shug'ullanuvchi kichik xo'jalik. | FIRMA | [ital.] Yuridik shaxs huquqlaridan foydalanuvchi xo'jalik, sanoat yoki tijorat korxonasi. |
| G'AJIMOQ | Kemirmoq, mujimoq; tishlab, chaynab qattiq jarohat yetkazmoq. | G'IJIMOQ | Gap bilan ezmoq, qiynamoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| G‘ARCHILLA MOQ | G‘arch-g‘arch etib tovush chiqarmoq. | G‘IRCHILLA MOQ | G‘irch-g‘irch qilib tovush chiqarmoq. |
| G‘ARIB | [a.] Qarindosh-urug‘i yo‘q, biror ko‘makchisi bo‘lmagan, kimsasiz; kambag‘al, qashshoq; nochor. | G‘ARB | [a.] Dunyoning to‘rt tomonidan biri; sharqqa qarama-qarshi tomon, kunbotar. |
| G‘IJIM | Buklangan, taxi buzilgan; baxmal; siqim. | G‘UJUM | Uzum donasi yoki shingili; g‘uj, to‘p. |
| G‘O‘R | [f.] Pishib yetilmagan, xom; pishiq ishlanmagan. | G‘OR | [a.] Tog‘ yo balandlik bag‘rida tabiiy holda vujudga kelgan katta hajmli bo‘shliq. |
| GADO | [f.] Kambag‘al, iqtisodiy jihatdan zaif. | GADOY | [f.] Tilanchilik bilan kun ko‘ruvchi, tilanchi. |
| GANCH | [f.] Naqsh, suvoq uchun ishlatiladigan sementga o‘xshash oq rangli qurilish unsuri. Ganch suvoq. Ganch qorimoq. | GANJ | Ganj [f.] Xazina, boylik. |
| GARMON | [yun.] mus. Ikki yoni buklama, klaviaturali musiqa asbobi. | GORMON | [yun.] fiziol. Ichki sekretsiya bezlaridan ajralib chiqib, qonga qo‘shiladigan modda. |
| GILOS | meva | GO‘LOS | to‘q jigar rang |
| GO‘SH | [f.] esk. Eshitish a’zosi, quloq. | GO‘SHT | [f.] Tirik mavjudodning mushak to‘qimalari, et; so‘yilgan jonivor tanasining ovqat sifatida iste’mol qilinadigan qismi. |
| GRIPP | [fr.] Nafas yo‘lining yallig‘lanishi va harorat ko‘tarilishi bo‘ladigan yuqumli kasallik. | GRIF | [fr.] Biror kimsa imzosi, muassasa nomi chekilgan muhr, shtempel va ularning hujjat ustiga bosilgan nusxasi. “Sharq” nashriyotining grifi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| GUNG | [f.] So‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan; tilsiz, soqov. | GO‘NG | Chorva (qoramol, qo‘y-echki, ot) va parrandalar axlati; o‘g‘it. |
| HALAK | Halak [a.] Holdan toygan, azobli holatda; ovora, sarson; bezovta. | HALOK | [a.] Fojiali ravishda o‘lmoq; nobud bo‘lmoq. |
| HALI | Biroz oldinroq; yaqindagina; yaqin orada; hozircha; hanuz. | XOLI | [a.] Kimsasiz, bo‘sh; chet, xilvat, ovloq; ozod,; yakkama-yakka. |
| HALLAMOQ | Hal bilan bo‘yamoq; bezamoq. | HATLAMOQ | Sakramoq, irg‘imoq. |
| HARAM | [a.] Muqaddas deb ajratib qo‘yilgan, kirish taqiqlangan joy; hovlining ayollar yashaydigan qismi. | HAROM | [a.] Yeyish, ichishga, foydalanishga yaramaydigan, halol emas; man etilgan ish, xatti-harakat, narsa. |
| HARIF | [a.] Sherik, jo‘ra, ulfat; raqib. | HARF | [a.] Tovushning yozma nutq uchun qabul qilingan shakli, belgisi. |
| HIS | [a.] Sezgi, to‘yg‘u, tashqi ta’sirni anglash qobiliyati. | HIRS | [a.] Biror narsaga kuchli istak, zo‘r intilish; shahvoniy tuyg‘u. |
| HUMO | [f.] Afsonaviy qush; baxt qushi. | HIMO | Jismoniy yordam, ma’naviy qo‘llash; imo. |
| IJOBIY | [a.] Ma’qul, maqbul deb topilganlikni ifodalovchi; yaxshi, foydali. | IJODIY | Ijod, yaratuvchilik bilan bog‘liq bo‘lgan; muayyan sohada ish-faoliyat bilan shug‘ullanuvchi. |
| ILIK | Qo‘l; boldir suyagi, oyoqning tizzadan to‘piqqacha bo‘lgan qismi; jonivorlar oyoqlarining ichida moysimon modda bo‘luvchi qismi. | ILK | kit. Dastlabki, boshlang‘ich, birinchi; erta. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| IMMIGRANT | [lot.] Biron davlatning uzoq muddatga yoki doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ko‘chib kelgan fuqarosi. | EMIGRANT | [lot.] O‘z vatanini tark etib, boshqa mamlakatga ketib qoladigan odam; muhojir. |
| INDOV | O‘simlik. | UNDOV | Chaqiriq, taklif; bo‘yruq, amr; tinish belgisi, nuqta ustiga tik chiziq shaklida qo‘yiladigan belgi. |
| INTERNAT | [lot.] O‘quvchilari davlat tomonidan ta’minlanadigan ta’lim muassasasi. | INTERNET | [ingl.] Umumjahon kompyuter tarmog‘i; butun jahon bo‘yicha tarqalgan va telefon hamda optik-tolali liniyalar, modemlar bilan o‘zaro bog‘langan, har qanday axborotni o‘zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui. |
| IRG‘AMOQ | Boshni tebratmoq, silkitmoq. | IRG‘IMOQ | Sakramoq. |
| ISSIZ | Hidsiz, hidga ega bo‘lmagan. | IZSIZ | Izi yo‘q, izga ega bo‘lmagan. |
| IYMOQ | Yelini yumshab ravon sut beradigan holga kelmoq; ko‘ngli yumshamoq. | UYMOQ | Ustma-ust qalashtirib, bir yerga to‘plamoq; uyum yoki g‘aram hosil qilmoq; yig‘moq. |
| IZN | [a.] Ruxsat, ijozat. | IZM | [a.] Ixtiyor, erk. |
| JILDLI | kam qo‘ll. Jild bilan qoplangan, jildi bor bo‘lgan. | JILDLIK | Jild, g‘ilof qilish uchun mos. Jildlik gazlama. |
| JIYRON | Qizg‘ish malla (ot turi va rangi). | JAYRON | Ohularning bir turi, qoraquloq. |
| JO‘YALI | O‘rinli, bama’ni, ma’qul; suv oqar yo‘lagi. | JO‘YALIK | Hammaga ma’qul tushadigan. |
| JODI | Xashak kesadigan qo‘lbola asbob. | JODU | [f.] Sehrgar; sehrli harakat va duo. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| JUDA | Haddan tashqari, g'oyat; nihoyatda. | JUDO | [f.] Ayrilmoq, mahrum bo'lmoq. |
| KAFE | [fr.] Choy, kofe kabi yengil taomlar sotiladigan kichik restoran. | KOFE | [goll.] Qahva hosili va ichimligi. |
| KAFIL | [a.] Mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. | KAFEL | [nem.] Koshin; devorga qoplash uchun ishlatiladigan sirlangan sopol taxtacha. |
| KAFT | qo'lning qismi | KIFT | yelka |
| KAMPANIYA | [fr.] Muhim masalani amalga oshirish uchun ma'lum muddatda o'tkaziladigan ish, tadbir. | KOMPANIYA | [fr.] Uyushgan shaxslar guruhi; savdo, sanoat va boshqa birlashmalarning bir turi. |
| KAMTIK | Teshik-yoriq, oraliq, ochiq joy. | KEMTIK | Narsaning uchgan, singan, kertilgan, buzilgan, nuragan joyi; yetishmaydigan, nuqson. |
| KARJ | [f.] Qalpoqning to'rt tomoni, bo'lagi. | KARCH | [f.] Qovun, tarvuz kabi poliz mahsulotlarining kesilgan kichik bo'lakchasi, tilikning bo'lagi. |
| KARTOSHKA | [r.] Hosili tuproq ostida bo'ladigan o'simlik va uning ozuqabop mahsuli. | KARTOCHKA | [r.] Biron ma'lumot yozib qo'yiladigan to'rtburchak qog'ozcha; hujjat. |
| KASIR | Quruq va mo'rt narsalarning sinishidan, parchalanishidan chiqadigan tovush. Kasir-kasir qilmoq. | KASR | [a.] Birlikning qismlarini bildiruvchi son; yomon ta'sir. O'nli kasr, kasr son. Kasriga qolmoq. Kasri tegmoq. |
| KAVSH | Yegan ovqatini og'izga keltirib chaynash. | KOVSH | [f.] Ekskavator kranining uchiga o'rnatilib, yerni kovlash, tuproq olish kabi ishlar uchun xizmat qiladigan, o'tkir temir tishlar o'rnatilgan ichi chuqur moslama. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| KAVSH | Yegan ovqatini og‘izga keltirib chaynash. | KAFSH | [f.] Charmdan tikilgan va odatda mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi. |
| KO‘CHA | [f.] Shahar, qishloqlarda yo‘lovchi, mashina o‘tib turadigan yo‘l. | GO‘JA | Bo‘g‘doy, jo‘xorini o‘g‘irda tuyib tayyorlangan suyuq ovqat. |
| KO‘MMOQ | Kavlangan yerga joylamoq, ko‘rinmaydigan qilmoq; dafn etmoq; chuqur joyni to‘ldirmoq. | KO‘NMOQ | Ko‘nmoq Unamoq, rozi bo‘lmoq. |
| KO‘NCHI | Teri pishiruvchi. | KONCHI | Konda ishlovchi. |
| KO‘P | Ko‘p Ortiq, ziyod; uzoq; tez-tez; g‘oyatda. | KUB | [yun.] Olti yoqli geometrik shakl va shunday shakldagi narsa; bir miqdorning uchga ko‘paytmasi; bir kub metrga teng hajm o‘lchovi. Besh kub tuproq. Ikki kub taxta. |
| KO‘RGILIK | Ko‘ngilsiz voqea, hodisa; taqdir, qismat. | KO‘RGULIK | Ko‘rishga arziydigan; ibratli. |
| KO‘RIK | Sinov, tekshirish; hammaga ko‘rsatish. | KO‘RK | Husn, chiroy. |
| KOMPLEKT | [lot.] Biror narsaning bir butunlikni tashkil etuvchi to‘la majmui. | KONFLIKT | [lot.] Qarama-qarshi tomonlar, fikr, kuchning to‘qnashuvi; nizo; mojaro. |
| KOMPOT | [fr.] Quruq yoki ho‘l mevadan qaynatib tayyorlangan shirin ichimlik. | KOMPOST | [lot.] O‘t, po‘choq, axlat kabi chiqindilar bilan tuproq yoki torf aralashmasini chiritib tayyorlangan organik o‘g‘it. |
| KONTAKT | aloqa, bog‘lanish | KONTRAKT | shartnoma |
| KUBIK | [r.] Bolalar o‘yini; hajm o‘lchov birligi. | KUBOK | [r.] Sport musobaqasida g‘olibga sovrin sifatida beriladigan vaza, idish. |
| KUCH | Jismoniy quvvat. | KO‘CH | Ko‘chish vaqtida tashiladigan yuk, narsalar. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| KULMAK | Kulmoq. | KO‘LMAK | Xalqob joyda to‘planib qolgan suv. |
| KUN | Quyosh, oftob; bir sutkalik vaqt, quyosh chiqqandan botguncha muddat. | KO‘N | Ishlov berilgan teri; charm. |
| KUY | Musiqa, ohang. | KO‘Y | [f.] esk. Ko‘cha, yo‘l; biror narsa dardi, tashvish; ahvol, holat. |
| KVADRAT | teng yoqli to‘rtburchak | KVADRANT | doiraning choragi |
| LAHIM | [a.] Yer ostidan, uy yoki qal’a ostidan qazib o‘tkazilgan tor yo‘l. | LAHM | [a.] Suyaksiz, yumshoq (go‘sht). |
| LAK | [f.] esk. Yuz ming; hisobsiz. | LOK | [f.] Buyumlarni yaltiratish, pardozlash uchun surtiladigan suyuq bo‘yoq. |
| LAXCHA | Lovullab yonib turgan cho‘g‘, o‘t. | LAHJA | [a.] Mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi. |
| LOP | Juda qisqa muddatda yuz beradigan holat yo harakat ifodasi. | LOF | [f.] O‘ta bo‘rttirilgan gap, kuchli mubolag‘ali fikr ifodasi. |
| MA’NAVIY | [a.] Ma’naviyatga oid, axloq bilan bog‘liq; ma’naviy jihatdan. | MA’NOVIY | [a.] Ma’noga oid. |
| MA’NO | Ma’no [a.] So‘z ifodalagan tushuncha. | MA’NI | [a.] s.n. Aql, es-hush; foyda, naf. |
| MAHAL | [a.] Vaqt, payt, davr; marta; chekka. | MAHOL | [a.] Qiyin, mushkul. |
| MAHR | [a.] Nikoh paytida kelinga ajratilgan doimiy, shaxsiy mulk. | MAKR | [a.] Hiyla, firib; aldamchilik. |
| MAHRUM | [a.] Ega bo‘lish yoki foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan, benasib. | MARHUM | [a.] Vafot etgan, qazo qilgan, o‘lgan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| MAJOZ | [a.] So‘z, ibora, gapning ko‘chma ma’noda ishlatilishi; istiora. | MIJOZ | [a.] Doimiy xaridor va sotuvchi; ixlosmand kishi. |
| MALOMAT | [a.] Birovni yomonlab aytilgan gap, ta’na. | MA’LUMOT | [a.] Bilim; xabar, axborot. |
| MAQOM | [a.] Musiqiy ohang, kuy yo‘li; tartib, o‘lchov, usul, huquq, imtiyoz. | MUQOM | [a.] Raqsda muzikaga mos harakati; noz-ishva. |
| MART | [lot.] Fevral va aprel oralig‘idagi uchinchi oy. | MARD | [f.] Qo‘rqmas, jasur; aytganini bajaradigan. |
| MARTABA | [a.] Obro‘, e’tibor; mansab, lavozim, amal. | MAROTABA | [a.] Daf’a, marta. |
| MASHOQ | Bug‘doy, arpa o‘rog‘i paytida yerga to‘kilib qolgan boshoqlar. | MASHSHOQ | [a.] Muzika chaluvchi sozanda. |
| MATAL | [a.] Tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli birikma, hikmatli so‘z; qissa, masal; topishmoq. | MA’TAL / MAHTAL | [a.] Kutib qolgan, muntazir, intizor. |
| MATO | [a.] Gazlama; mol, buyum, tovar. | MOTO | [lot.] Mototsikl. |
| MATROS | Matros [goll.] Harbiy dengiz flotining askari. | MATRAS | [nem.] Ichiga paxta, jun kabilar solingan qalin to‘shak. |
| MAVLUD | [a.] Tug‘ilgan kun ziyofati; ayollarning diniy marosimi. | MAVRID | [a.] Biror ishni bajarish uchun qulay vaqt. |
| MAY | Beshinchi oy; sharob, musallas. | MOY | Mol yo o‘simlik urug‘idan olinadigan yog‘. |
| MAYL | [a.] Ishtiyoq, qiziqish; istak. | MOYIL | [a.] Mayli bor, ko‘ngil qo‘ygan; yaqin. |
| MENG | Badan va teri ustidagi tug‘ma qora, qizg‘ish dog‘, xol. | MING | 1000 raqami va uning ifodasi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| MO‘LTIRAMOQ | Ayanchli qaramoq, javdiramoq. | MILTIRAMOQ | Milt-milt etib yonib yoki kuchsiz yorug‘ bermoq. |
| MO‘RT | Sinuvchan, egilmasdan sinadigan. | MURT | Mo‘ylov. |
| MODDA | [a.] Jismlar yig‘indisi; rasmiy hujjat, qonun kabilarning raqam bilan belgilangan bo‘linmasi. | MADDA | [a.] Yara ichida hosil bo‘lgan yiring. |
| MODDA | [a.] Jismlardan tashkil topgan narsa; hujjat, majmua kabilarning raqam bilan ajratilgan bo‘linmasi. | MODA | Kishilar didiga mos kiyim-kechak; ayrim hayvonlarning urg‘ochisi. |
| MOS | [a.] Munosib, loyiq; o‘xshash, monand; loyiq. | MAST | [f.] Kayf qilgan; nash’aga cho‘mgan, zavqlangan. |
| MOX | [r.] Zax yerlarda, tosh, daraxt ustida o‘sadigan ildizsiz mayda o‘simlik. | MOH | [a.] Oy (planeta); 28–31 kunlik muddat. |
| MULK | [a.] Tegishli mol, imorat, yer suv va boylik. | MILK | [f.] Tishni qoplab turgan et; matoning ikki yonidan uzunasiga chiqarilgan qirg‘oq. |
| MUNIS | [a.] Yaqin, sirdosh, do‘st. | MINUS | [lot.] Ayirish amalining belgisi, haroratning sovuqligi belgisi. |
| MUQIM | [a.] Turg‘un, doimiy. | MUHIM | [a.] Alohida ahamiyatli. |
| MUROJAAT | [a.] Birovga qarata aytilgan gap, qilingan da’vat, chaqiriq. | MUNOJOT | [a.] Islomdagi farz namozlardan tashqari ixtiyoriy ravishda o‘qiladigan namozlar; sharq mumtoz adabiyotining an’anaviy unsurlaridan biri; o‘zbek mumtoz cholg‘u kuylari turkumi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| MURUT | s.n. Nok (mevasi va daraxti). | MURID | [a.] Eshonning muxlisi; pirning shogirdi; ixlosmand. |
| MURVAT | [a.] Asbob-uskuna va mashinalarning burab ishga soladigan kaliti, ochqich. | MURUVVAT | [a.] Yaxshilik, saxovat, . |
| NAFIS | [a.] Go'zal, nozik, latif; nozik, yoqimli; badiiy yuksak. | NAFS | [a.] Eyish-ichishga, mol-dunyoga bo'lgan ehtiros; hirs. |
| NAQ | [a.] Xuddi, aniq, ayni; o'zginasi. | NAQD | [a.] Pulini darhol to'lash sharti bilan bo'lgan yoki bo'ladigan savdo muomalasi. |
| NART | [f.] Kurtak, novda. Nart chiqarmoq. | NARD | [f.] Shatranj o'yini. |
| NASHA | [a.] Poyasidan tola, urug'idan yog' olinadigan o'simlik; shu o'simlik shirasidan olingan, kayf beradigan modda. | NASH'A | [a.] Hissiy lazzat, huzur, gasht. |
| NAZIR | [a.] O'xshash; bamisoli. | NAZR | [a.] Xudo yo'liga atalgan yoki berilgan narsa; mulla, eshon kabilarga beriladigan haq. |
| NO'XTA | Ot-ulovni, buzoqni haydash, to'xtatish uchun boshiga solinadigan abzal. | NUQTA | [a.] Makondagi o'rin; tinish belgisi; punkt. |
| NOR | Bir o'rkachli erkak tuya; badandagi qizg'ish dog', xol. | NAR | [f.] Erkak jinsli hayvon yoki parranda. |
| NUFUZ | [a.] Obro'-e'tibor. | NUFUS | [a.] Aholi, odamlar. |
| O'G'IRLIK | O'g'irlab qo'lga kiritilgan (narsa). | O'G'RILIK | O'g'irlash, o'g'ri odamning ishi, o'g'irlash bilan shug'ullanish. |
| O'N | To'qqizdan keyingi raqam. | UN | Ovoz, tovush, sas. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| O‘N | To‘qqizdan so‘nggi raqam. | O‘NG | Yurak joylashmagan tomon; amaldagi, haqiqiy holat. |
| O‘NGIR | O‘yilgan, chuqur joy; o‘yiq. | UNGUR | Tog‘larda tik o‘yiq joy; g‘or. |
| O‘PQON | Suvni tortib ketadigan, yer ostidagi ko‘rinmas chuqurlik, g‘ovak, bo‘sh joy. | O‘PQIN | Biror tabiiy kuch vositasida hosil bo‘ladigan uyurma; girdob. |
| O‘Q | Miltiqqa solib otiladigan snaryad. | UQ | Angla, tushun, anglab yet, fahmla. |
| O‘QISH | Bilim olish, mutolaa. | UQISH | Tushinish, anglash. |
| O‘QISHLI | Ishtiyoq bilan o‘qiladigan. | O‘QIMISHLI | O‘qib, ma’lum ma’lumotga ega bo‘lgan, savodlilik darajasi yetuk. |
| O‘QUV | O‘qimoq, o‘qish; ta’lim-tarbiya. | UQUV | Biron narsani tushunib, bilib olish, did, fahm, farosat. |
| O‘RA | Sabzavot, don kabi narsalarni ko‘mish uchun tagi kengroq qilib qazilgan chuqurlik. | URA | Hujum qilayotgan jangchilarning jangovar nidosi; ko‘tarinki ruh bilan ma’qullash yoki xursandlikni ifodalovchi nido. Ura demoq. Ura sadolari. |
| O‘RGIMCHAK | O‘ziga ovqat bo‘ladigan hasharotlarni tutish uchun to‘r, in to‘qiydigan bo‘g‘imoyoqli hashorat. | O‘RGAMCHIK | O‘rganish, tajriba uchun qilingan; dastlabki, xomaki. |
| O‘RMAK | Gilam, xurjun, qop va shunga o‘xshash turli xil bog‘ich, bov, tasmalar to‘qish dastgohi. | O‘RMOQ | O‘simlik poyasini qirqmoq; tolani eshmoq. |
| O‘ROG‘LI | O‘rab qo‘yilgan, o‘ralgan. Qog‘ozga o‘rog‘li. O‘rog‘li to‘n. | O‘ROQLI | O‘rog‘i bor, o‘roqqa ega bo‘lgan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| O'TKAZMOQ | Biror narsaning ichidan, yonidan, ustidan yurib, uchib, suzib nariga yetkazmoq, jildirmoq; ko'chirmoq; tadbirni boshlatmoq. Majlis o'tkazmoq. | O'TQAZMOQ | Kimsaning o'tirishiga ko'maklashmoq; ekmoq; o'rnatmoq. |
| O'Y | Xayolan fikr, mulohaza yuritish jarayoni va uning natijasi; fikr, mulohaza; reja, niyat; aql. | UY | Yashashga mo'ljallab qurilgan bino; hovli; xonadon. |
| O'YLAMOQ | Fikr yuritmoq; xotirlamoq; xayolidan kechmoq. | UYLAMOQ | Uylantirmoq. |
| O'YLANMOQ | Fikr-mulohaza yuritmoq; xayol bilan band bo'lmoq. | UYLANMOQ | Qiz yo ayolni nikohga olmoq, oila qurmoq. |
| O'YLANMOQ | Fikr-mulohaza yuritmoq; xayol bilan band bo'lmoq; yodga olmoq. | O'YNALMOQ | Shug'ullanmoq; turlicha harakatlar qilmoq. |
| O'YMA | O'yib ishlangan, yasalgan; o'yib, qirib zarb qilib bezak ishlash usuli va shu usulda ishlangan bezak, naqsh. | UYMA | Uyilgan, to'dalangan. Uyma tuproq. |
| O'YMOQ | Kavlamoq, qazimoq; naqsh solmoq; chimchilamoq. | UYMOQ | Ustma-ust qalamoq; yig'moq. |
| O'ZMOQ | Tez yurib yoki yugurib oldindagi yoki teng ketayotgan kishidan o'tib ketmoq; g'olib chiqmoq. | OZMOQ | Oriqlamoq; yo'ldan adashmoq. |
| OBRO' | [f.] Kishining jamoatchilik orasidagi e'tibori; hurmat, nufuz. | ABRO' | ' [f.] esk. Inson qoshi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| OG'ALIK | Og'a, aka, yoshi katta ekanlik. Og'alik qilmoq. | OG'ALIQ | tar. Buxoro xonligida mansabdor shaxs, xon maslahatchisi. |
| OG'IRLASHMOQ | Vazni ortmoq; yomon holga tushib qolmoq. | OXIRLASHMOQ | Tugab qolmoq, nihoyasiga yetmoq. |
| OG'ISH | Qiyshayish, qiya holatda bo'lish. | OG'USH | [f.] Quchoq, qo'yin, bag'ir. |
| OHANG | [f.] Yoqimli tovushlar oqimi; kuy; uyg'unlik. | OHAN | [f.] Temir. |
| OLIS | Uzoq, yiroq; qadimgi. Olis yo'l, olis dala. | ALIS | Ko'z qorachig'ining sal qiyshiqligi. Alis ko'z. Ko'zi alis ekan ukangning. (So'zl.) |
| OLISHMOQ | Kurashmoq, kurash tushmoq; urishmoq. | ALISHMOQ | Almashtirmoq, boshma-bosh qilmoq, bir narsani berib o'rniga boshqasini olmoq. |
| OLU | olxo'ri | OLUV | olish |
| OMIXTA | [f.] Aralashtirilgan (yog', yem); aralash-quralash, qorishiq. | OMUXTA | [f.] O'rgangan, o'rgatilgan; biladigan. |
| OMONIM | [yun.] Shakl va talaffuzi, ya'ni yozilishi va aytilishi bir, ammo ma'nosi boshqa-boshqa so'zlar, shakldosh so'zlar. | ANONIM | [yun.] Xat yoki asarning o'z nomini yashirgan muallifi; muallifi qayd etilmagan xat, asar. Anonim xat. |
| OQIN | Doim oqib turadigan, oqar; xalq shoiri. | OQIM | Ma'lum bir yo'nalishda oqayotgan (suyuqlik, gaz). |
| OQLIK | Oq belgisiga ega bo'lishlik. Sochning oqligi. | OQLIQ | Sutdan tayyorlanadigan mahsulotlar, sut-qatiq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| OQMOQ | Quyiga qarab harakat qilmoq; o‘tmoq, kechmoq. | OG‘MOQ | Qiyshaymoq, engashmoq. |
| ORO | [f.] Oroyish, pardoz, chiroy, ziynat, husn, ko‘rk. | ORA | Orasida, ichida; orasi, o‘rtasi, oralig‘i. |
| OTA | Farzandli kishi. | ATO | [a.] In’om qilmoq, baxsh etmoq; bermoq. |
| OTALIK | Otaning farzandiga munosabati. | OTALIQ | Homiylik; xonlikda mansab turi. |
| OTDOSH | Bir xil ismli kishilar. | ODOSH | s.n. Odoq; tamom. Odosh bo’ldi. |
| OTMOQ | Shiddat bilan irg‘itmoq; uloqtirmoq. | ORTMOQ | Oshmoq, ko‘paymoq; yukni joylamoq. |
| OTTIRMOQ | Otish harakatini bajartirmoq. Tosh ottirmoq. | ORTTIRMOQ | Ortmoq harakatini o‘zgaga bajartirmoq; ko‘paytirmoq; ega bo‘lmoq. |
| OXIR | So‘nggi nuqta, joy, vaqt; poyon. | OXUR | Yem-xashak berish uchun qilingan maxsus joy. |
| OZAR | Ozarbayjon xalqi. | OZOR | [f.] Kishiga etkazilgan jismoniy yoki ruhiy azob, jabr. |
| OZOD | [f.] O‘z erki, huquqi o‘zida bo‘lgan, erkin, hur. | AZOT | O‘simlikka solinadigan oziq bo‘ladigan rangsiz va hidsiz ximiyaviy dori; dast ko‘tarmoq, tik ko‘tarmoq. |
| PAKT | [lot.] Muhim siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro shartnoma, bitim. | FAKT | [lot.] Mavjud narsa, haqiqiy voqea-hodisa; ma’lumot, dalil. |
| PALAK | Qovun, tarvuz, bodringning yerda yoyilib o‘sadigan tana, shox va barglari; so‘zana. | FALAK | [a.] Osmon gumbazi, samo; yuksak. |
| PAND | [f.] O‘gitli gap, nasihat; aldov. | BAND | [f.] Egallangan; ish bilan *mashg‘ul; sop,* tutqich; to‘siq, to‘g‘on. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| PANEL | [nem.] Bino, xona ichidagi devorning taxta-yog‘och, plastmassa yoki moy-bo‘yoqli bezak qoplamasi; yassi temir-beton yoki yog‘och plita. | FANER | [nem.] Yupqa qilib tekislangan yog‘och taxtalarni ustma-ust, qatlam-qatlam yelimlab yopishtirib tayyorlangan qurilish materiali; yupqa taxta, plastinka. |
| PAQIR | Suyuqlik solinadigan idish, chelak; ikki tiyinlik chaqa. | FAQIR | [a.] Moddiy jihatdan nochor, qashshoq; so‘zlovchi shaxs; bechora. |
| PARA | [yun.] tlsh. Baynalmilal o‘zlashma so‘zlarning birinchi qismi; s.n. 80 yoki 90 minutlik dars. | FARA | [fr.] Transport vositalarining oldiga o‘rnatilgan, qorong‘ilikda yo‘lni yoritish vazifasini bajaradigan fonar. |
| PARQ | s.n. Sochni ikki tomonga tarashdan boshda hosil bo‘ladigan yo‘l. | FARQ | [f.] Narsalarning nomuvofiqligi, o‘xshamaslik, ayirma, tafovut. |
| PAXSA | [f.] Tepib pishitilgan loyni ustma-ust bosib qilingan (devor). | PASXA | [yun.] Xristian dinining pravoslav mazhabida shu dinning asoschisi Isoning tirilishiga bag‘ishlangan bayram; yahudiylarda bahorgi diniy bayram. |
| PAXTA | G‘o‘za o‘simligining chigit va tolalardan iborat oppoq yumshoq hosili; momiq. | PUXTA | [f.] Uzoq chidaydigan qilib ishlangan; pishiq, mustahkam; bekam-ko‘st; to‘la-to‘kis. |
| PENAL | [nem.] Ruchka, qalam, rezina solib qo‘yiladigan cho‘zinchoq quticha, g‘ilof. | FINAL | [ingl.] Musiqa, drama, opera, balet, kinofilm yoki adabiy asarning oxiri, xotimasi; sport musobaqalarida o‘yin g‘olibini belgilaydigan oxirgi bosqich. Shaxmat musobaqasining finali. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| PILLA | [f.] Ipak qurti mahsuli; milk shishi. | PALLA | [f.] Vaqt, dam, zamon; davr. |
| PILTA | [f.] Piltakachga o‘rab, do‘ppi tepchigiga, to‘n yoqasining qavig‘iga tiqiladigan qog‘oz; eskirib, yirtilib to‘zmoq; pilik, bir uchi moyga tegib, boshqa uchi yonadigan tizimcha. | PLITA | [r.] Katta, yassi, tekis tosh, temir bo‘lagi, toshtaxta; ovqat pishiriladigan moslama. |
| PO‘K | Ichi chirigan yoki kavak daraxt buqog‘i; xomsemiz (bola). | PUK | Oshiqning chikkaga qarama-qarshi tomoni. Oshiqning puk tomoni. Puk tushmoq. |
| PO‘SHT | Odamlarni yo‘ldan qochirish uchun qilinadigan xitob. | PUSHT | [f.] Kimsa yoki oilaning o‘zidan avvalgi ajdodi va keyingi avlodi, avlod-ajdod; nasl. |
| POCHA | [f.] Oyoqning tizzadan to‘piqqacha bo‘lgan qismi; boldir; shimning tizzadan pastki qismi. | POYCHA | [f.] Ayollarning ishtoni, lozima; so‘yilgan molning tizzadan quyi qismi va undan pishirilgan taom. |
| POL | Marza qilingan ekin yeri bo‘lagi; xonaning taxta to‘shalgan sathi. | FOL | [a.] Biror narsaga qarab, kishi bilishga qiziqqan narsa yoki hodisani oldindan aytib berish, bashorat qilish. |
| PONA | Narsalarni yorish, kerish yoki biriktirish uchun ishlatiladigan, bir uchi tig‘li yog‘och yoki temir. | PANA | [f.] Boshqalarning nazaridan yashiradigan yoki biror narsa ta’siridan saqlaydigan, himoya qiladigan joy, narsa, to‘siq. |
| POYEZD | [r.] Bir-biriga ketma-ket tirkalib lokomotiv yordamida yuradigan vagonlar tizimi. | FOIZ | [a.] Biron son, miqdorning, narsaning yuzdan bir hissasi; foyda. |
| PURKAMOQ | Zarraga aylantirib sochmoq. | BURKAMOQ | O‘ralmoq; qoplamoq; *to‘ldirmoq.* |
| PUT | Ikki oyoq orasi, chatanoq. | BUT | To‘liq; bekamu *ko‘st; yetarli; butun.* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| QABUL | [a.] Taklif, iltimosga rozilik; ishga, o‘qishga, a’zolikka olish; kimsa huzurida bo‘lish. | QABIL | [a.] o‘.-p.k. va ch.k. shaklida ko‘makchi vazifasida qo‘llanadi: qabilida Qiyos, o‘xshatish munosabatini bildiradi; tarzida, yo‘sinda, -ga o‘xshab, degandek. |
| QAD | qomat | QAT | qavat, qatlam |
| QAHR | [a.] Kuchli g‘azab, jahl; achchiqlanish. | QA’R | [a.] Narsaning eng tubi, yer tagi. |
| QALA | o‘tinni taxla | QAL’A | shahar |
| QALIN | Ko‘ndalang o‘lchami katta; bir necha qavatli yoki orasiga narsa solib ishlangan; zich; quyuq; ko‘p. | QOLIN | Yuzasiga pat chiqarib to‘qilgan gilam. |
| QANOT | Qush va parrandalarning uchish a’zosi; samolyotning yerdan ko‘tarilib, havoda muallaq turishi uchun xizmat qiladigan qanotsimon yoyiq qismi; eshik, derazaning tabaqasi. | QANOAT | [a.] Boriga ko‘nish, kifoyalanish; qoniqish; ishonch. |
| QARAMOQ | Qaramoq Ko‘rmoq, ko‘z tashlamoq, nazar solmoq. | QARAMOG‘ | Tarbiya, boqish, tasarruf jihatdan ixtiyorida bo‘lish, qaramlik. |
| QARG‘ISH | Qarg‘ash iborasi, salbiy munosabatni bildiradigan gap, so‘z. | QARG‘ASH | Qarg‘amoq fe’lining harakat nomi, jarayon. – Qarg‘ashning hech keragi yo‘q, - dedi Marhamat. – lekin bunaqa taltaytirish ham yaxshimas-da. (H.N.) |
| QARI | keksa, mo‘ysafid | QA’RI | chuqur yeri, osti |
| QARIB | [a.] adab. Aruz vaznining bahrlaridan biri. | QARIYB | [a.] Taxminan, deyarli, yaqin. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| QARISH | Yoshi o‘tib keksalik davriga o‘tish; keksayish. | QARICH | Yozilgan panjaning bosh barmog‘i uchidan jimjiloqning uchigacha bo‘lgan masofa; shu masofaga teng eski uzunlik o‘lchovi. |
| QARMOQ | Baliq ovlanadigan ilgakli moslama; tuzoq, dom. | QORMOQ | Aralashtirmoq, qorishtirmoq. |
| QARS | Narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan hosil bo‘ladigan tovush; qarsak. | QARZ | [a.] Ma’lum muddat o‘tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa (pul, buyum); foydalanganlik uchun to‘lanadigan narsa; majburiyat. |
| QARTA | Otning yog‘li yo‘g‘on ichagi va undan tayyorlanib yaxna qilib yeyiladigan taom. | KARTA | [lot.] Xarita; o‘yin qog‘ozlari dastasi, o‘yin; blank. |
| QASIR | Yog‘och va shunga o‘xshash narsalarning chatnashidan, sinishidan chiqadigan tovush. | QASR | [a.] Hashamatli saroy; koshona. |
| QAT’IY | [a.] Barqaror; o‘zgarmas; uzil-kesil belgilab qo‘yilgan. | QAT’I | : [a.] -ga qaramasdan. |
| QATIQ | Sutga tomizg‘i solib ivitib tayyorlangan mahsulot. | QATTIQ | Shakliy va tarkibiy o‘zgarishlarga o‘ta chidamli; mustahkam, pishiq; kuchli, zo‘r; og‘ir. |
| QAVIQ | Chok turi; qavish ishi. | QOVUQ | Odam va hayvonlarning siydik to‘planadigan, ichi bo‘sh, xaltasimon a’zosi; siydik pufagi. |
| QAVS | [a.] Tinish belgisi; shamsiya yil hisobida to‘qqizinchi oy; o‘n ikki burjning biri. | QOVUZ | Donning po‘sti; ichiga archa bargi, tariq po‘sti solingan beshik to‘shagi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| QAYD | [a.] Ta'kidlash; yozish, ro'yxatdan o'tkazish. | QAYT | [a.] Qusmoq. |
| QAYIR | [a.] Daryo suvi ko'payganda suv bosadigan joylar; yerosti suvi yuqori bo'lgan yerlar. | QAYER | Makon ma'nosidagi so'roq olmoshi. Qaysi yer? Qaysi joy? |
| QAYISHMOQ | Bukilmoq; egilmoq; jon kuydirmoq; achinmoq. | QIYISHMOQ | Mayda bo'laklarga bo'lishmoq; kesmoq; o'rinlatmoq; talashmoq. |
| QIMMAT | [a.] Mo'ljaldagidan katta pul turadigan, narxi baland; bebaho, aziz. | QIYMAT | [a.] Tovar narxi; narx, baho; kishi yoki narsaning turmushda tutgan o'rni, qadri. |
| QIRG'OQ | Suv havzalari va oqar suvlarning quruqlikka tutash joyi; lab, bo'y; sohil. | QURG'OQ | Yog'in-sochin kam bo'lgan yoki bo'ladigan; quruq. |
| QISIM | Changallab siqilgan kaft va shu kaft orasiga olingan narsa miqdori, siqim. | QISM | [a.] Butunning tarkibi, bo'lagi yoki hissasi, ulushi. |
| QIYA | Bir tomoni baland, bir tomoni past joy; tog' yoki tepalik yonbag'ri. | QIYO | Ko'z qiri bilan yonlab (qarash). |
| QIYQ | tovush: qiyq etdi | QIYIQ | qiyqim |
| QIZG'ANCHIQ | Narsasini birovdan ayaydigan, baxil. | QIZG'ANGICH | Qizg'anish harakatini boshlagan, o'rgana boshlagan. |
| QIZLI | Ayollarning yoshlik chog'i va holati; iffat, bokiralik. | QIZLIK | Qiz farzandi bo'lgan (odam, uy, oila). |
| QO'NISHMOQ | Uchishdan to'xtab qo'nmoq; o'rnashmoq. | QUNISHMOQ | Sovuqdan, kasallik yo qo'rquvdan g'ujanak bo'lmoq, junjikmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| QO'YIN | Ko'krak va uni yopib turgan kiyim orasidagi joy; quchoq, og'ush. | QUYUN | Qattiq uyurmali shamol, uyurma; to'fon. |
| QOBIL | [a.] Har qanday ishga qobiliyati bo'lgan, layoqatli; yuvosh, mo'min. | QABUL | [a.] Rozilik, ma'qullash; ishga, o'qishga, a'zolikka, safga olish, qo'shish; kimsa huzurida bo'lish, efir to'lqinlarini o'ziga olish. |
| QOCHOQ | O'z vatanini tashlab qochib, o'zga yurtlarda yurgan (odam). | QOCHQOQ | Qat'iyatsizlik bilan o'zini chetga oladigan, qo'rqoq; bildirmay qochib ketadigan. |
| QOLIB | qolmoq | QOLIP | oyoq kiyimi tikish moslamasi |
| QOLMOQ | Joyini tark etmaslik; meros bo'lmoq; to'xtamoq; ixtiyoriga o'tmoq; barham topmoq. | QALMOQ | Xalq nomi. |
| QORLI | Qor bosgan, qor bilan qoplangan joy. | QORLIK | Qori bor. |
| QORLIQ | Oftobda shamol tegmaydigan joylarda yozda ham qor bilan qoplangan (joy). | QARLUQ | O'zbek xalqi tarkibidagi yirik qabila ittifoqi va lahjasi. Qarluq lahjasi. |
| QUDRAT | [a.] Yuqori darajadagi kuch-quvvat; qodirlik; ilohiy kuch. | KUDURAT | [a.] Ko'ngil g'ashlik, xafalik; gina, o'pkalash. |
| QULLIK | Mol-mulk va huquqqa ega bo'lmaslik, huquqsizlik, itoatkorlik. | QULLUQ | Minnatdorlik, muborakbod. |
| QULP | Yashnash, gullash, avj olish. | QULF | [a.] Eshik, sandiq, javonni berkitish va ochish uchun ishlangan maxsus buyum, moslama; qulflab qo'yilgan, berk. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| QUR | Marta, daf'a; davra; tovuqsimonlar turkumiga mansub qush. | QO'R | Cho'g' aralash issiq kul; cho'g'; zaxira, boylik. |
| QURA | qura boshladi | QUR'A | chek |
| QURT | Uzun tanasini egib-yozib yoki ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor; hasharot. | QURUT | Suzmani yong'oqdek-yong'oqdek yumaloqlab quritib tayyorlanadigan mahsulot. |
| QURUQ | Suvi, nami yo'q yoki oz; yog'in-sochinsiz; quruqshagan; hech narsasiz; bo'sh. | QO'RIQ | Himoya, mudofaa, saqlash; qo'riqlab, saqlab turiladigan joy; bo'z yer. |
| QUSH | Umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli bir sinfi; parranda. | QO'SH | Ikkita, bir juft; vaqtinchalik qarorgoh. |
| QUSHXONA | Uy qushlari boqiladigan joy. | KUSHXONA | [f.] Mol so'yish, go'sht-yog' tayyorlash bilan shug'ullanadigan korxona. |
| QUYILMOQ | Bir idishdan boshqasiga suvni quymoq; kuchli tarzda kelmoq, yog'ilmoq. | QUYULMOQ | Suvi kamayib, quyuq holga kelmoq, quyuqlashmoq; og'ir, vazmin bo'lib qolmoq; qalinlashmoq. |
| QUYMOQ | Tuxum va unni aralashtirib pishirilgan taom; to'kmoq, solmoq; oqizmoq, yo'naltirmoq. | QO'YMOQ | Joylashtirmoq, o'rnatmoq, tashlamoq, qurmoq. |
| RAMZ | [a.] Biror g'oya, tushuncha, hodisalarni ifodalovchi shartli belgi, ishora; imo-ishora. | RAZM | [f.] Nazar solmoq, kuzatmoq, ko'zdan kechirmoq. |
| RAVON | [f.] Bir tekisda va to'xtovsiz boradigan yoki borayotgan, silliq; to'g'ri. | ROVON | Ayvon, uyning oynavand yo ochiq old qismi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| REAL | [lot.] Haqiqatan ham mavjud bo'lgan; haqiqiy, chin; amalga oshishi mumkin bo'lgan. | RIAL | Italiyada pul birligi. |
| ROSA | [f.] Bekami ko'st, to'la; nihoyatda, juda. | RASO | [f.] Kami yo'q, to'liq; yetuk, barkamol. |
| RUL | [goll.] Kema, avtomobil, samolyotlarning harakat yo'nalishini boshqarish mexanizmi. | ROL | [fr.] Aktyor tomonidan sahnada, ekranda ijro etilgan badiiy obraz; nutq; mavqe. |
| RUX | [f.] Shaxmat sipohi, to'ra; yuz; kimyoviy element. Ruxni yurmoq. | RUH | [a.] Kishi hayotligida u bilan birga, vafotidan keyin esa tanadan chiqib, abadiy qoladigan ko'zga ko'rinmas narsa, kuch, arvoh; ichki holat, kayfiyat; fayz, zavq. |
| SACHOQ | Gajim, popuk; otning to'pig'i ustidan osilib tushgan bir tutam soch. | SOCHIQ | Yuz-qo'l, idish-tovoq artishda ishlatiladigan mato; sochib tashlangan. |
| SADA | Sersoya, qalin shox-shabbali daraxt, qayrag'ochning bir turi. | SADO | [a.] Tovush, ovoz. |
| SADO | [a.] Tovush, ovoz. | SAZO | [f.] Qilmishiga yarasha tanbeh; ta'zir, jazo; shaxt. |
| SAFLAMOQ | Safga tizmoq, bir qatorga turg'izmoq. Askarlarni saflamoq. | SARFLAMOQ | Xarajat qilmoq. |
| SALMOQ | Vazn, zalvor; mavqe, nufuz. | SOLMOQ | Biron narsa ichiga yo ustiga joylamoq, qo'ymoq, tashlamoq. |
| SANAT | sanatmoq | SAN'AT | badiiy ijodiyot turi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SANOAT | [a.] Zavod, fabrika, korxonalar majmui. | SAN'AT | [a.] Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositsida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi; mahorat, iste'dod. |
| SAQOV | ot, eshaklar kasalligi | SOQOV | gung, tilsiz |
| SAVA | Suyuqlik, ichimlik solish uchun teridan qilingan idish, sanoch. | SA'VA | [a.] Sayroqi qush. |
| SAVR | [a.] O'n ikki burjning biri; shamsiy yil hisobida ikkinchi oy (22 aprel – 21 may). | SABR | [a.] Oshiqmasdan kutish, o'zini tiya olish; to'zim, toqat, bardosh. |
| SAVR | [a.] O'n ikki burjning biri, shamsiya yili hisobida ikkinchi oy (22 aprel – 21 may). | SARV | [f.] Igna bargli yashil tik daraxt; xushqomat (ayol). |
| SAVSAR | [f.] O'rmonda yashaydigan, qimmatbaho qo'ng'ir mo'ynali hayvon va uning terisi. | SAFSAR | Gul turi; binafsharang. |
| SAYD | ov | SAYID | Muhammad payg'ambar avlodlari |
| SAYIL | [a.] Katta va tantanali sayr-tomosha. | SAYL | Sel, suv toshqini. |
| SEKRETAR | [lot.] Kotib. | SEKRETOR | fiziol. Shira ajratish. |
| SEMIRMOQ | Et olmoq, to'lishmoq, vazni ortmoq; xursand bo'lmoq. | SIMIRMOQ | Ichga tortib ichmoq; vujudga singdirmoq. |
| SEROB | [f.] Yetarli darajada, ko'p, mo'l-ko'l. | SIROP | [fr.] Meva sharbati va shakarni qaynatib tayyorlangan quyuq qiyom; *sharbat. Olcha siropi.* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SERRAYMOQ | Dong qotmoq, qotib turmoq; angrayib turavermoq. | SO‘RRAYMO Q | Ozib-to‘zib, oriqlamoq. |
| SERVIS | [ingl.] Kundalik turmushning xilma-xil sohalarida aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish va shunday xizmatning o‘zi. | SERVIZ | [fr.] Ma’lum miqdordagi kishilarga mo‘ljallangan, bir xil badiiy bezakli idish-tovoq to‘plami. |
| SHAG‘AL | Mayda tosh qatlami yoki uyumi; maydalangan tosh bo‘laklari. | SHAQAL | [f.] Chiyabo‘ri. |
| SHAHID | [a.] Din, mazhab yo‘lida halok bo‘lgan shaxs; Vatan urushi uchun yoki haqqoniyat yo‘lida qurbon bo‘lgan odam. | SHOHID | [a.] Biror ish, voqea, xatti-harakatda bevosita ishtirok etgan, qatnashgan, ko‘rgan shaxs; guvoh. |
| SHAMA | Damlab ichilgan choyning idish tagida cho‘kib qolgan qismi; biror narsaga ishora tarzidagi so‘z, gap. | SHANBA | [f.] Haftaning jumadan keyingi, yakshanbadan oldingi oltinchi kuni. |
| SHAMPAN | [fr.] Karbonat angidrid gazi bilan to‘yintirilib, germetik idishda qayta achitilib uzumdan solingan, ko‘piklanib turadigan vino turi. | SHAMPUN | [ingl.] Turli xil moyli va xushbo‘y moddalar, maxsus qo‘shimchalardan foydalanib tayyorlangan suyuq yoki xamirsimon yuvish vositasi. |
| SHAPAQ | Qo‘y, qoramolning qovurg‘a bo‘lmaydigan, qorin qismini qoplab turgan joydagi go‘shti. Shapaq go‘sht. Go‘shtning shapag‘i. Shapaqni kesmoq. | SHAPOQ | Quyosh nuriga qaray olmaydigan (ot); ko‘zdagi oq parda, ko‘z kasalligi. Shapoq ot. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SHAPAQ | Qo‘y, qoramolning qovurg‘a bo‘lmaydigan, qorin qismini qoplab turgan joydagi go‘shti. | SHAFAQ | [a.] Kun chiqish yoki kun botish oldidan ufqda hosil bo‘ladigan lolarang qizillik. |
| SHARIF | [a.] esk. Muqaddas, aziz; tabarruk. | SHARF | Sharf [nem.] Bo‘yinga o‘raladigan yoki yelkaga, boshga tashlab yuriladigan eniga nisbatan uzun mato. |
| SHATTA | Tepib beriladigan zarb; tepki, tarsaki, shapaloq. | SHARTTA | Istihola qilib o‘tirmay, ro‘yirost, dangal; o‘ylab o‘tirmay. |
| SHAXT | Biron ish-harakatni bajarishga intilish, berilish holati, darajasi; birdan, shartta. | SHAHD | [a.] esk. Asal, bol. |
| SHER | [f.] Sut emizuvchi yirik yirtqich hayvon, arslon; azamat. | SHE’R | [a.] Ma’lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar. |
| SHIFER | [nem.] Asbest bilan sementdan yoki slanesdan tayyorlanadigan va tom yopish uchun ishlatiladigan binokorlik materiali. | SHIFR | [fr.] Maxfiy yozishmalar uchun ishlatiladigan shartli alifbo; maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan shartli belgilar majmui; farqlovchi belgi. Shifr bilan yozilgan xat. |
| SHIRALI | Tarkibida shirasi, shirinligi ko‘p; mazmunli. | SHIRALIK | Shirinlik; qand-qurs. |
| SHIVIT | [f.] Xushbo‘y hidli o‘simlik; oshko‘k. | SHUVUT | Qilmish, aybi tufayli boshqalarga ko‘rinolmaydigan, xijolatli, uyatga qolgan. |
| SHO‘R | [f.] Meyoridan ortiq tuz solingan; tuzlangan; toleyi past; azob-uqubat, baxtsizlik. | SHUUR | [a.] Ong, tushuncha. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SHO‘RA | [f.] bot. G‘ovlab o‘sadigan yovvoyi o‘t; tokning to‘pguli, g‘unchasi. | SHO‘RO | [a.] esk. Sovet hokimiyatining 20-asr 20-40-yillardagi nomi; sovet hokimiyati davrida saylab yoki tayinlab qo‘yiladigan boshqaruv, davlat yoki jamiyat organi va u joylashgan joy. |
| SHOX | [f.] O‘simlik, daraxt yoki buta tanasidan o‘sib chiqqan o‘simta; ba’zi hayvonlar boshidan o‘sib chiqadigan o‘simta, mugiz. | SHOH | [f.] Podshoh; shaxmatning bosh figurasi; sara, yaxshi. |
| SHUBA | [nem.] Avrasi mo‘ynali ustki qishki kiyim. | SHU’BA | [a.] Tashkilot yo muassasaning alohida bir qismi, bo‘lim; idora. |
| SHUVOQ | Mayda oqish bargli ko‘p yillik yovvoyi o‘simlik. | SUVOQ | Suvash va uning natijasida hosil bo‘lgan qatlam. |
| SILAMOQ | Siypamoq, ustidan qo‘l yurgizmoq. | SIYLAMOQ | E’zozlamoq, hurmat ko‘rsatmoq. |
| SILKIMOQ | Kuch bilan u yon-bu yonga siltamoq, keskin tebratmoq. | SILQIMOQ | s.n. Sirqimoq, sizmoq; tomchilamoq; paydo bo‘lmoq. |
| SINDIRMOQ | Parchalamoq, maydalamoq, bo‘laklarga ajratmoq; shikastlantirmoq. | SINGDIRMOQ | Ichki qatlamiga o‘tkazmoq, o‘zlashtirmoq. |
| SINMOQ | Bo‘laklarga bo‘linmoq, parchalanmoq. | SINGMOQ | Shimilib ichki qatlamiga o‘tmoq. |
| SIQIM | Narsa changallab siqilgan kaft va shu kaft orasiga olingan narsa miqdori. | SIG‘IM | Biror miqdordagi narsani *sig‘dirish, ichki* hajm. |
| SIQMOQ | O‘rab, qamrab yoki bosib ezmoq, qismoq. | SIG‘MOQ | Jo bo‘lmoq, *joylashmoq; mos kelmoq.* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SIRMOQ | Ustini mato bilan qoplamoq; mahkam qilib bog‘lamoq. | SIRTMOQ | Arqon, chizimchaning bo‘yinbog‘ qilib bog‘langan uchi; asorat, siquv. |
| SIRPANCHIQ | Silliq, toyg‘oq yuza, sirt, sirg‘anchiq; maxsus muzlatilgan maydon. | SIRPANG‘ICH | Yer, muz, qor ustida sirpanish uchun foydalaniladigan vosita. |
| SIYOQ | [a.] Ko‘rinish, shakl, avzo. | SIYOH | [f.] Qora; qora rang; qorong‘i; xat bo‘yog‘i. |
| SIYRAK | Qalin emas; onda-sonda, kam; orasi ochiq-ochiq; bittadan joylashgan. | ZIYRAK | [f.] O‘ta sezgir, zakiy. |
| SIZMOQ | Biror narsadan mildirab yo tomchilab o‘tmoq. | SUZMOQ | Qo‘l-oyoqni qimirlatib suvda harakatlanmoq; ovqat, ichimlikni idishlarga taqsimlab solmoq; shoxi bilan urmoq. |
| SO‘LIQ | So‘ligan, so‘lg‘in. | SOLIQ | Amaldagi qonunlar asosida yuridik, jismoniy shaxslarning daromadi va mol-mulkidan undiriladigan, budjetga o‘tkaziladigan majburiy to‘lov; quyi solingan, osilgan. |
| SO‘QQA | Yolg‘iz, hech kimi yo‘q. | SOQQA | Zo‘ldir, shar; o‘yinga tikilgan narsani uradigan oshiq, yong‘oq. |
| SO‘RG‘ICH | Emizikli bola so‘radigan emizik. | SURG‘UCH | Tez erib, tez qotadigan smola va mum qorishmasi. |
| SO‘TIK | So‘tilgan; so‘kilgan; kiyim-kechaklarning tikilgan yoki birlashtirilgan joyidan tikuv ipi uzilib ajralishi. | SOTIX | [r.] Gektarning yuzdan bir yer o‘lchov birligi. O‘n sotix yer. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SO'TMOQ | Tikilgan narsani chok-chokiga ajratmoq. | SITMOQ | Siqib ichidagini chiqarmoq; makkajo'xori so'tasidan donini, anor donasini ajratib olmoq. |
| SOG'IM | Bir marta sog'ib olingan sut. Birinchi sog'im. Sog'im vaqti bo'ldi. (So'zl.) | SOG'IN | Sut beradigan, sog'iladigan. |
| SOLIQ | Davlat tomonidan amaldagi qonunlar yuridik va jismoniy shaxslarning daromadi yoki mol-mulkidan undiriladigan va budjetga o'tkaziladigan majburiy to'lov; biror xarajatni qoplash, biror marosimni o'tkazishga yordam berish maqsadida o'zaro kelishib, ko'pchilikka taqsimlangan yig'im. | SOLIH | [a.] Ezgu, savobli; foydali; mo'min-qobil, yaxshi. |
| SOP | Ba'zi asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; tutqi, dasta, band. | SOB | : Tamom bo'lmoq, tugamoq. |
| SOP | Ba'zi asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; tutqi, dasta, band. | SOF | [a.] Beg'ubor, toza; asil; nuqsonsiz. |
| SOVLIQ | Qo'zilagan, sog'iladigan qo'y; ona qo'y. | SOG'LIK | Salomatlik, sog'lomlik. |
| SUNBUL | [a.] Piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga o'xshash uzun bargli o'tsimon manzarali o'simlik va uning g'uj bo'lib ochiladigan xushbo'y, chiroyli guli. | SUNBULA | [a.] O'n ikki burjning biri. |
| SUQMOQ | Tiqmoq, sanchmoq; uchli narsani kiritmoq. | SO'QMOQ | Yolg'izoyoq yo'l; urmoq, tushirmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| SURAT | [a.] Rassom tomonidan chizilgan tasvir, rasm; fotorasm; tashqi qiyofa. | SUR'AT | [a.] Tezlik, jadallik. |
| SURMA | Kimyoviy element, kumushsimon oq mo'rt metall; suriladigan, surilma; qoramtir pardoz bo'yog'i. | SURTMA | Tabiiy, tug'ma; azaldan berilgan. |
| SURMOQ | Jildirmoq, ko'chirmoq. | SURTMOQ | Biror narsa betini, sirtini boshqa narsa betiga, sirtiga ishqamoq, suykamoq; bo'yamoq, artmoq. |
| SUS | Xohish, tusash; mahobat, savlat. Ko'ngli sus ketmoq. Sus bosmoq. Susi baland. | SUST | [f.] Uncha kuchli, shiddatli bo'lmagan; imillagan; lanj, bo'shashgan. |
| SUT | Emizikli ona ko'kragidan yoki emizuvchi hayvon emchagidan chiqadigan oq suyuqlik. | SUD | Fuqarolar da'vosiga oid yo jinoiy ishlarni ko'rib hukm chiqaruvchi davlat muassasasi; foyda, naf. |
| SUTXO'R | Sut ichishni yaxshi ko'radigan (bola). | SUDXO'R | [f.] Pul qarz berib foydasidan boylik orttiruvchi shaxs. |
| SUYANCHIQ | O'rindiqlarning suyanish yoki tirsak tirab o'tirish uchun xizmat qiladigan qismi. | SUYANG'ICH | kam qo'll. Hassa singari suyanish uchun qilingan cho'p moslama. |
| | | SUYULMOQ | Suyuqlashmoq; haddan oshmoq. |
| SUYILMOQ | Sevilmoq. | SO'YMOQ | Bo'g'ziga pichoq tortib o'ldirmoq, bo'g'izlamoq; kesmoq, bo'laklamoq. |
| SUYMOQ | Yaxshi ko'rmoq, sevmoq; erkalamoq. | SUYULMOQ | Suyuq holda bo'lmoq; haddan oshmoq. |
| SUYUNMOQ | Sevinmoq, xursand bo'lmoq. | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TA'MA | [a.] O'zgadan biror narsa umid qilish, umidvor bo'lish. | TA'NA | [a.] Xatolik, ayb yoki kamchilikni betga solib yoki kamsitib aytilgan gap, qilingan xatti-harakat; minnat. |
| TA'MINLAMOQ | Ta'min qilmoq, sharoit yaratmoq. | TA'MIRLAMOQ | Tuzatmoq, yaroqli holga keltirmoq. |
| TAB | [f.] Taft, harorat. | TA'B | [a.] Kishi mijozi, fe'l-atvor; xohish, ixtiyor. |
| TAGLIK | Biror buyumning ost qismini qoplash uchun ishlatiladigan material; yosh bolalar uxlaganda tagiga tushaydigan mato. Taglik mato. | TAGLI | Tagi-tubi bo'lgan; tubli; tagdor. Tagli odam. Tagli ayol. |
| TAHRIR | [a.] Yozilgan narsalarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish; yozish, ijod qilish. | TAHLIL | [a.] Narsa, hodisalarni mohiyat, qonuniyat va b. jihatlardan tekshirish, o'rganish; baholash. |
| TAHSIL | [a.] O'qish, bilim olish. | TAHSIN | [a.] Mamnuniyat bilan berilgan yuqori baho, maqtov. |
| TAKYA | [a.] esk. Odamlar to'planib ulfatchilik qilinadigan joy; ko'knorixona; yostiq, bolish. | TAQYA | [a.] esk. Sidirg'a matodan tayyorlangan gulsiz do'ppi. |
| TALAT | talatmoq | TAL'AT | yuz, chehra |
| TAM | : tam-tam Qaddi-qomati kelishgan, xushbichim, zebo. | TA'M | [a.] Maza, lazzat. |
| TAMBA | Eshik, darvoza orqasiga tiralgan yog'och, cho'p, temir. | DAMBA | *[goll.] Suv yo'liga qo'yilgan to'siq; band, to'g'on.* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TAMBUR | [fr.] Temir yo'l vagonining kiraverishidagi dahlizchasimon bo'lmasi. | TANBUR | [a.] Uch yoki to'rt simli chertib chalinadigan musiqa asbobi. |
| TANA | [f.] Jussa, gavda tan; yoshidan oshgan qoramol. | TA'NA | [a.] Xatolik, ayb yoki kamchilikni betga solib yoki kamsitib aytilgan gap, qilingan xatti-harakat; minnat. |
| TAP | Narsalarning bir-biriga urilishidan chiqadigan ovoz; cho'chish. | TA'B | [a.] Kishining ichki tabiati, ko'ngli; xohishi. |
| TAQA | Ot, eshak tuyog'iga qoqiladigan metall moslama. Otning taqasi. | TAQQA | Birdan va qimir etmay; butunlay, tamomila. |
| TAQA | Otning tuyoq ostiga qoqiladigan metall moslama. | TOQA | Dona, juft narsaning bittasi. |
| TAQIB | taqib qo'yib | TA'QIB | yashirincha kuzatish |
| TAQIR | O'simlik o'smaydigan, qurib-qaqshab yotgan yer. | TAHQIR | Tahqir [a.] kit Haqorat, xo'rlash; kamsitish. |
| TARIF | [fr.] Turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xizmatlari to'lov stavkalari tizimi. | TA'RIF | [a.] Narsa, hodisa kabilarning so'z bilan bayon etilgan tasviri; tavsif. |
| TARMASHMOQ | Yopishmoq, mahkam ushlamoq. | TIRMASHMOQ | Chirmashmoq, chirmashib yuqoriga ko'tarilmoq. |
| TARS | Ikki narsa qattiq urilishidan chiqadigan ovoz. | TARZ | [a.] Shakl, taxlit; usul, ravish. |
| TARSILLAMOQ | "Tars" etgan ovoz chiqarmoq; pishish darajasiga yetmoq. | TIRSILLAMOQ | "Tirs" etgan ovoz chiqarmoq; to'lib yetilmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TASHBIH | [a.] O‘xshatish, majoz. | TASBEH | Xudoning nomini zikr etib sanaladigan munchoq shodasi. |
| TASIR | Ikki narsaning urilishidan chiqadigan kuchsiz tovush. | TA’SIR | [a.] Tashqi omilning kishi, narsa holatini o‘zgartirish faoliyati. |
| TATIL | Ertalabki nonushta. Tatil qilmoq. | TA’TIL | [a.] O‘qish, ish to‘xtatilib dam olishga ajratilgan (vaqt). Ta’tilga chiqmoq. Ta’til kunlari. |
| TAX | Narsaning tekis qayrilgan, bukilgan joyi (chizig‘i), taxlam. | TAXT | [f.] Hashamatli o‘rindiq. |
| TAXIR | Ta’mi og‘izni burushtiradigan: achchiq. | TAQIR | Qaqrab-qotib yotgan yer; yaydoq. |
| TAXLIT | [a.] Ko‘rinish, shakl, qiyofa; usul, yo‘sin, tarz. | TAQLID | [a.] O‘xshatma ovoz va harakat; ijod va faoliyatda o‘zgalarga ergashish, ish olib borish. |
| TAXT | [f.] Hashamatli o‘rindiq, tayyor. | TAHT | [f.] sh. Ost, tag; nikoh to‘yidan so‘ng kuyov-kelinga yotish uchun to‘shab beriladigan ko‘rpacha va yopinchiqlar. Taht to‘shamoq. Taht solmoq. |
| TAYANCHIQ | Tutib, ko‘tarib turadigan vosita; ustun, tirgovuch. | TAYANG‘ICH | kam qo‘ll. Ag‘nab ketishi mumkin bo‘lgan devorga tirkab qo‘yilgan tirgak. |
| TEKIS | Silliq, yuzida g‘adir-budir, o‘nqir-cho‘nqir joylari bo‘lmagan; bir maromda; baravariga; teng. | TEKST | [lot.] Matn. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TERI | Odam va hayvon tanasining tashqi qoplami, tana a'zolarini tashqi ta'sirlardan himoya qiluvchi va turli fiziologik vazifalarni bajaradigan po'sti; charm; taom. | TIRE | [fr.] tlsh. Uzun gorizontal chiziqcha (–) shaklidagi tinish belgisi. |
| TIB | [a.] Tibbiyot, meditsina. | TIP | [yun.] Bir turdagi narsalarning muhim belgilarga ega bo'lgan namunasi; bir turdagi kishilarning umumlashma belgi-xususiyatlarini aks ettiradigan, obraz. Bo'g'imoyoqlilar tipi. |
| TIK | Yuqoriga yo quyiga tikka yo'nalgan; tikka. | TEK | Harakatsiz; jim; bekor. |
| TIKILMOQ | Uzoq vaqt qaramoq; ignada ip bilan biriktirilmoq. | TIQILMOQ | Suqilmoq, joylanmoq, kirgizilmoq. |
| TILLIK | Ko'p gapiradigan, achchiq tilli. | TILIK | Uzun qilib bo'laklanib kesilgan narsa, tilim. |
| TIP | [yun.] Bir turdagi narsalarning muhim belgilarga ega bo'lgan namunasi; bir turdagi kishilarning umumlashma belgi-xususiyatlarini aks ettiradigan, obraz. | TIF | [yun.] Isitma va ong parokandaligi, xiralashuvi bilan kechadigan og'ir yuqumli kasalliklarning umumiy nomi; terlama. |
| TIQ | Narsalar asta urilganda chiqadigan tovush. | TIG' | Xanjar, qilich, nayza, pichoq kabi qurollar nomi. |
| TISH | Ovqatni chaynash, tishlash uchun xizmat qiladigan a'zo. | TUSH | Uyquda vujudga keladigan subyektiv psixik hodisa; quyosh qoq tepaga kelgan payt. |
| TISLANMOQ | Orqasi bilan yurmoq, yurgizilmoq. | TUSLANMOQ | Har xil tus, rangda ko'rinmoq; shaxs, son va zamonda o'zgarmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TIZ | Tizza. | TUZ | Taomga solinadigan modda; mazmun; tekislik. |
| TIZIM | Ip, sim kabi narsaga terilgan narsa; shoda; yo'nalish, ish-faoliyat, tartib-qoidalar majmui. | TUZUM | Jamiyat va davlat tuzilishi tizimi. |
| TO'L | Qo'ylarning tug'ish mavsumi, qo'zilash, qo'zilatish. To'l vaqti. To'l tushmoq. | TUL | Eri yoki xotini o'lib yolg'iz qolgan; beva. |
| TO'L | Qo'ylarning tug'ish mavsumi, qo'zilash, qo'zilatish. To'l vaqti. To'l tushmoq. | TOL | [fr.] Kartonga toshko'mir qatroni shimdirib, ba'zan ustiga bir oz qum sepib tayyorlangan, nam o'tkazmaydigan qurilish ashyosi. |
| TO'LATMOQ | Qarz yo zimmasidagi narsani undirmoq. | TULATMOQ | Oriq mollarni parvarishlab junini tushirmoq, holatini yaxshilamoq. |
| TO'NGMOQ | Muzlab qotib qolmoq, muzlamoq; sovqotmoq; qotmoq. | TO'NMOQ | Ko'zini tikib qaramoq; tikilmoq. |
| TO'NMOQ | sh. Ko'zini tikib qaramoq, tikilmoq. | TONMOQ | Qilmishini, aytgan so'zini bo'yniga olmaslik, inkor qilmoq; rad etmoq. |
| TO'P | [f.] To'da; koptok. | TUP | O'simlik yo daraxtning har bir donasi. |
| TO'SMOQ | To'siq qilib, g'ov solib o'tmaydigan qilmoq; bekitmoq; monelik qilmoq. | TO'ZMOQ | To'zondek har yon sochilmoq, uchmoq, to'zg'imoq. |
| TOG' | Yer sirtining yuksak joyi. | TOQ | [a.] Eshik va binolarning tepasidagi *yarim doira shaklida ishlangan qismi; gumbaz;* yakka, *yolg'iz; sabr toqati qolmaslik.* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TONISH | Inkor etish, bo‘yniga olmaslik. | TANISH | Kimsaga avvaldan ma'lum, kishilar taniydigan, biladigan; kimgadir ma'lum bo‘lgan, ma'lum darajada munosabat-aloqasi bo‘lgan shaxs. |
| TORLIK | Ko‘lami kichiklik, ensizlik; xasislik. | TORLI | Tori bo‘lgan, tor tufayli ovoz beradigan. |
| TOS | Kir yuviladigan va yuviniladigan metall idish, tog‘ora. | TOST | [ingl.] Qadahlarga quyilgan ichkilik va uni ko‘tarish oldidan kimsa nomiga yoki biror narsa sharafiga yaxshi tilaklar bildirib aytiladigan qisqacha so‘z, nutq. |
| TOTIM | sh. Totib ko‘rish darajasidagi ozgina. | TOTEM | [ingl.] Ibtidoiy urug‘, qabilalarda diniy-hurmat obekti bo‘lgan, ilohiylashtirilgan hayvon, o‘simlik, biror narsa-buyum yoki tabiat hodisasi. |
| TOTMOQ | Mazasini ko‘rmoq; yeb-ichmoq; sinamoq. | TORTMOQ | O‘ziga tomon surmoq; yurgizmoq; berkitmoq; jalb etmoq. |
| TOVLANMOQ | Jilvalanmoq, yarqiramoq; turli rang, ohang bilan akslanmoq, ifodalanmoq. | TOBLANMOQ | Taftiga, alangasiga qizdirmoq; chiniqtirmoq. |
| TOVOQ | Sopol yo chinnidan qilingan kosasimon yoki yalpoq idish. | TABOQ | Nashr etilgan bosma matnni o‘lchash birligi. |
| TUGUN | Arqon, ip kabilarning bog‘lab ulangan joyi. | TUGUK | Tugib qo‘yilgan, tugilgan. |
| TUNAMOQ | Biror joyda yotib qolmoq. | TO‘NAMOQ | Tunda talamoq, bor narsalarini olmoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TUNIKA | O'simliklar po'stlog'i va ayrim suv hayvonlari terisining ustki yupqa himoya qatlami; kalta yengli ko'ylak. | TUNUKA | Tom yopish yoki boshqa maqsadlar uchun tayyorlangan yupqa, taxta-taxta temir. |
| TUP | Daraxt, o'simlikning har bir donasi. | TUB | Tag, ost; oxir, oqibat; mohiyat. |
| TUP | O'simlik yo daraxtning donasi. Bir tup o'rik. Bir tup daraxt. | TUF | Tupurganda hosil bo'ladigan tovush; tog' jinsi. Tuf demoq. |
| TUR | Belgilari, xossalari, vazifasi jihatdan umumiy bo'lgan bir guruh yoki butunlik tashkil qilgan narsalar, hodisalarning xili, navi, ko'rinishi; o'simlik va hayvonlar tizimida biror turkumga mansub, alohida sifatga ega bo'lgan shakl, tasnif birligi. Sport turlari. Gazlama turlari. | TO'R | Har qanday materialdan katak-katak ko'zli yoki bejamdor qilib to'qilgan narsa; baliq, qush ovlash uchun ishlatiladigan buyum; tuzoq; yuqori joy. |
| TURLAMOQ | Turli-tuman, rang-barang qilmoq, har xil, xilma-xil qilmoq; bir-biriga moslab tanlamoq. | TO'RLAMOQ | Ipni to'r shaklida kesishtirib tikmoq, shu yo'sinda tikib, biror yuzani qoplamoq; to'r hosil qilmoq. |
| TURUSH | [f.] Achitish, oshirish, ko'pchitish vositasi (tomizg'i, xamirturush). | TURISH | Oyoq uzra tik aziyatda bo'lmoq; muayyan holat, vaziyat, ahvol; chidam. |
| TUS | Rang, ko'rinish. | TUZ | Molekulalari tarkibiga kislota qoldig'i bilan bog'langan metall atomlari kirgan murakkab moddalar; shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi (natriy xlorid). |

| | | | |
|---|---|---|---|
| TUSH | Uyquda vujudga keladigan subyektiv psixik hodisa, jarayon; quyosh qoq tepaga kelgan payt. | TO'SH | Gavdaning bo'yin bilan qorin o'rtasidai old qismi; ko'krak; mol va qushlarning ko'krak qismi. |
| TUSHLIK | Tush vaqtida yeyiladigan ovqat; ovqatlanish; kunning o'rta vaqti. | TO'SHLIK | Qo'y go'shtining to'sh qismi. |
| TUSSIZ | Rangi o'zgarib rangsiz holga kelib qolgan. | TUZSIZ | Tuzi yo'q, tuzi kam; ma'nosiz, bema'ni. |
| TUTINMOQ | Kimsa bilan ahdlashib, qalin do'st, o'rtoq bo'lmoq, qarindoshdek munosabat bog'lamoq; biror ishga kirishmoq. | TUTILMOQ | Ushlanmoq; qo'lga tushirilmoq; duchr bo'lmoq. |
| TUTUM | Ish tutish yo'sini. | TUTUN | Biror narsa yonganda havoga ajralib chiqadigan mayda zarralardan iborat gazsimon moddalar majmui. |
| TUYILMOQ | Maydalanmoq, yanchilmoq. | TUYULMOQ | His qilinmoq, sezilmoq, payqalmoq. |
| TUYMOQ | Keli, hovoncha kabi idishda maydalamoq; his qilmoq. | TO'YMOQ | Yeyish, ichishga bo'lgan talabi qonmoq, ovqatga, suvga qonmoq; suv, ozuqaga to'yinmoq; rohatlanib miriqmoq; mehri qonmoq. |
| TUYMOQ | Keli, hovoncha kabi idishda maydalamoq; his qilmoq. | TUGMOQ | Tugun solmoq; tayyorlamoq. Ro'molning uchini tugmoq. |
| TUZMOQ | Barpo etmoq, yaratmoq, qurmoq. | TIZMOQ | Shodalamoq, termoq, birin-ketin joylamoq. |
| TUZMOQ | Barpo etmoq, vujudga keltirmoq; yaxlit bir holatga keltirmoq. | TO'ZMOQ | To'zondek har yon sochilmoq; parokanda bo'lmoq; tarqamoq; to'zg'imoq. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| UCHLIK | Vakolati uch shaxsdan yoki uch tomonning vakillaridan iborat muvaqqat guruh; biror narsaning uchiga kiygizib, o'rnashtirib qo'yiladigan uchli, o'tkir uch qism. | UCHLI | Uchi bor; uchi muayyan shaklga ega; uch qismi ingichka yassi narsa. Uchli pona. |
| UCHMOQ | Qanot bilan havoda harakat qilib olg'a intilmoq; parvoz qilmoq. | O'CHMOQ | Yonishdan to'xtamoq, so'nmoq; asl tusini yo'qotmoq; ko'zdan g'oyib bo'lmoq. |
| ULAMA | Ulangan, bir-biriga tutashtirilgan. | ULAMO | [a.] Islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari, diniy muassasalarga, sud (qozilik) mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha islom dini olimlari. |
| ULOQ | Ulanadigan narsa, ulangan; echki bolasi; ko'pkari;. | ULOG' | Uzilgan narsaning bir-biriga ulanib qo'yilishi, ulangan. |
| ULUSH | Hissa. | ULISH | It, bo'ri kabi hayvonlarning uzluksiz ovozi. |
| UNAMOQ | Ko'nmoq, rozi bo'lmoq. | UNNAMOQ | Biror narsaning harakatini qilmoq, ishga kirishmoq, urinmoq. |
| UNDAMOQ | Biror ish, harakatni bajarishga chaqirmoq; da'vat etmoq, taklif qilmoq. | INDAMOQ | Biror narsa demoq; gap, so'z aytmoq; gapirmoq. |
| UNNAMOQ | Harakatga kirishmoq, boshlab yubormoq. | UNDAMOQ | Bajarishga da'vat qilmoq. |
| UQMOQ | Tushunmoq, anglamoq | O'QIMOQ | Mutolaa qilmoq; *kitobni o'qimoq* |
| URISH | Qo'l yoki biror vosita bilan zarb bermoq; kaltaklamoq; otmoq; o'zaro janjal, mojaro. | URUSH | Qabilalar, davlatlar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi uyushgan qurolli kurash; jang, to'qnashuv. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| URISHMOQ | Zarb bermoq; yoqalashmoq; shikastlamoq; koyimoq. | URUSHMOQ | Jang qilmoq. |
| USHOQ | Nonning mayda bo‘laklari; uvoq; kichik. | USHSHOQ | [a.] “Shashmaqom”ning ikkinchi maqomlar guruhiga oid kuy va shu kuydagi ashulaning nomi. |
| UXLAMOQ | Uyquga ketmoq, uxloq holatda bo‘lmoq; tinch holatda bo‘lmoq. | UHLAMOQ | “Uh” demoq, uh tortmoq. |
| UYLIK | Uy qurishga yetadigan, yaraydigan (yog‘och, qurilish ashyolari). | UYLI | Uyi bor, uyga ega; uylardan tashkil topgan. |
| UYMOQ | Ustma-ust qalashtirib, bir yerga to‘plamoq, uyum holida to‘dalamoq. | IYMOQ | Yelini yumshab ravon sut beradigan holga kelmoq; ko‘ngli erimoq. |
| UYMOQ | Ust-ustiga taxlamoq, g‘aram, uyum holida to‘dalamoq. | O‘YMOQ | Biror narsa bilan kovlab chuqur hosil qilmoq; naqsh, gul tasvir ishlash uchun sirtga iz, o‘yiq tushirmoq; yemirmoq. |
| UZMOQ | Kuch bilan tortib, yulqib, butundan ajratmoq; ajratib olmoq; kesib, qirqib olmoq. | O‘ZMOQ | Tez yurib yoki yugurib oldindagi yoki teng ketayotgan kishidan o‘tib ketmoq; g‘olib chiqmoq. |
| UZOQ | Oraliq masofasi katta, olis; ko‘p; yaqin emas. | O‘ZOG‘ | Bulturdan avvalgi yil. |
| UZUK | Barmoqqa taqiladigan, turli metallardan har xil shakl va kattalikda yasaladigan halqasimon zargarlik buyumi, taqinchoq. Brilliant ko‘zli uzuk. | UZIK | Uzilgan, ulanmagan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| UZUK | Bezak uchun barmoqqa taqiladigan, turli metallardan har xil shakl va kattalikda yasaladigan halqasimon zargarlik buyumi. | UZUQ | Uzilib qolgan, uzilib ketgan; bir-biriga bog'lanmagan, betartib; uzuq-yuluq. |
| VAQF | [a.] Mulkdor shaxslar, davlat tomonidan diniy muassasa ixtiyoriga daromadidan foydalanib turish, ammo o'zini sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk. | VOQIF | [a.] Xabardor, xabari bor, biluvchi. |
| XALAL | [a.] Muayyan ish-harakatni amalga oshirishga xalaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq. | HALOL | [a.] Yeb ichsa bo'ladigan, mehnat bilan topilgan, harom emas. |
| XALOS | [a.] Ozod, qutulish; qutqarish. | XOLOS | Bor-yo'g'i, faqat; hayrat va taajjub ifodasi. |
| XAM | [f.] Pastga egilgan, quyi solingan; xijolatdan, uyatdan boshi quyi solingan. | HAM | [f.] Ta'kidni, ma'noni kuchaytiruvchi so'z; gap va bo'laklarini bog'lash vazifasini bajaruvchi so'z. |
| XAR | [f.] Eshak; hayvon (so'kish); befahm. | HAR | [f.] Shaxs yoki narsalarni, ularning belgisi, harakati va b. jihatdan bo'lgan turidan ajratib ko'rsatadi; so'roq olmoshlari va bir, narsa kabi so'zlar bilan birikib, belgilash olmoshi hosil qiladi; ba'zi so'zlar bilan birikib qo'shma so'zlar hosil qiladi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| XATLAMOQ | Musodara qilingan mol-mulkni birma-bir hisobga olib, yozib chiqmoq, ro'yxatga olmoq; mol-mulkni birov nomiga qonuniy rasmiylashtirib bermoq. | HATLAMOQ | Narsa, joyning ustidan irg'ib, oshib tushmoq; sakramoq. |
| XAYOL | [a.] O'y, fikr; tasavvur; orzu; es, xotira. | XIYOL | [a.] Bilinar-bilinmas darajada; ozgina, sal, salgina, bir oz. |
| XAYOL | [a.] O'y, fikr; tasavvur; orzu; es, xotira. | HAYAL | hayal o'tmay Ozgina vaqt o'tmay; tezda. |
| XAYOLI | o'yi, fikri | HAYOLI | iffatli |
| XIL | [a.] Biror narsaning navi, turi, zot; jins. | HIL | Olov tafti. Olov hili. Cho'g' hili. Odamning hili. |
| XILLAMOQ | Xillarga, navlarga ajratmoq; tanlab olmoq, saralamoq. | HILLAMOQ | Hil yubormoq; issiq nafas yubormoq. |
| XIMCHA | Daraxt, butaning kichik shoxchasi, xivich. | XIPCHA | Ingichka, nozikkina; kelishgan. |
| XIROM | [f.] Chiroyli yurish, noz-tamanno bilan qadam bosish. | XROM | [yun.] Ximiyaviy element, qattiq metall; yupqa teri. |
| XIRS | [f.] Ayiq; boy, badavlat. | HIRS | [a.] Biror narsaga kuchli istak, zo'r qiziqish; shahvoniy nafs. |
| XIT | Tajang, asabiy; bo'g'ilgan. | HID | Narsaning kishiga ta'sir qiladigan xossasi; bo'y, is. |
| XIYLA | [f.] Ma'lum darajada, birmuncha, ancha; birmuncha fursat, ancha vaqt. | HIYLA | [a.] Firib, aldov, nayrang. |
| XO'P | [f.] Rozilik ma'nosini anglatadi; mayli, mayliga; rosa, juda. | XO'B | [f.] Yaxshi; chiroyli, go'zal kishi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| XO‘RLAMOQ | Izzat-nafsini poymol qilmoq, tahqirlamoq. | XORLAMOQ | Kamsitmoq, xor qilmoq. |
| XO‘RLIK | Izzat-nafsi poymol bo‘lish, tahqirlanish. | XORLIK | Tahqirlanish; qadrsizlanish; qadrsizlik; kamsitilish. |
| XO‘RLIK | Izzat-nafsi poymol bo‘lish, tahqirlanish. | HURLIK | Hur, erkin holat; shunday holatga egalik. |
| XOL | [f.] Badanda, teri ustidagi tug‘ma qora dog‘, bo‘rtma; belgi, bezak turi. | HOL | [a.] Muayyan bir holat; ahvol; kayfiyat, avzo, ko‘rinish. |
| XOL | [f.] Badanda yoki yuzdagi tug‘ma qora dog‘, bo‘rtma; belgi; bezak turi. | XOLL | [ingl.] Yevropada ilk o‘rta asrda ingliz turarjoylarining jamoatxonasi; jamoat yig‘iladigan, nisbatan katta xona; teatr, mehmonxonada dam olish yoki suhbatlashish uchun foydalaniladigan xona. |
| XOLI | [a.] Kimsasiz, bo‘sh; ovloq; yakkama-yakka. | HALI | Bundan bir oz ilgari; yaqin orada; hozircha. |
| XONAKI | [a.] Qo‘lda tayyorlangan; qo‘lda qilingan; qo‘lga o‘rgatilgan, uyda boqiladigan; qo‘lbola. | XOMAKI | [f.] Uzil-kesil hal qilinmagan, pishib-yetilmagan; taxminiy. Xomaki reja. Xomaki hisob-kitob. |
| XOSIYAT | [a.] Ijobiy xususiyat, yaxshi fazilat. | HOSIYAT | [a.] Biror narsa, ish, yo‘l-yo‘riq kabilarning ijobiy xislati; foyda. |
| XUMKALLA | [f.] Boshi xumday katta, kallador; miyasi yo‘q, kallavaram, qovoqbosh. | XOMKALLA | [f.] Hech narsa tushunmaydigan; fahmsiz; tentak. |
| XUR | tovush, xur-xur | HUR | erkin, ozod |

| | | | |
|---|---|---|---|
| XURMA | Qatiq ivitish, sut solib qo'yish uchun ishlatiladigan sopol idish. | XURMO | [f.] Shirin mevali daraxt va uning mevasi. |
| XURRAK | Uyquda chiqadigan tovush. | XARRAK | [f.] O'rindiq, skameyka; muzika asboblarida sim ustidan yuradigan bo'lakcha. |
| XURUSH | [f.] Biror ish yoki jarayonning yuzaga kelishi, tezlashuvi uchun yordam beradigan vosita; oshko'k, ziravor. | XURUJ | [a.] To'satdan hujum qilish; issiq, sovuq, shamol, yomg'ir, o't, suv kabi tabiat kuchlarining hamlasi, avjiga chiqishi. |
| XUSH | [f.] Yaxshi, yoqimli; ajoyib, shod. | HUSH | [f.] Anglash qobiliyati, ong, idrok. |
| XUSH | [f.] Yaxshi, yoqimli; ajoyib, shod. | XO'SH | [f.] So'roq gap oldida qo'llanadigan so'z; xayr. |
| XUSHLASHMOQ | Yoqtirishmoq, suyishmoq. | O'SHLASHMOQ | Xayrlashmoq, xayr-xo'sh demoq. |
| YAGANA | [f.] Ko'karib chiqqan ekin tupining ortiqchasini yulib tashlash, siyraklatish. | YAGONA | [f.] Bor-yo'g'i bitta, yakka-yolg'iz; boshqa tengi yo'q; hamma uchun umumiy. |
| YALLA | [f.] Raqs bilan ijro qilinadigan yengil va sho'x qo'shiq, ashula. | YALLO | [f.] O'yin-kulgi, xursandchilik. |
| YAROQLI | Talablarga javob beradigan, yaraydigan. | YAROG'LI | Qurollangan, qo'lida quroli bor. |
| YAROQSIZ | Biror talabga javob berolmaydigan, biror narsaga yaramaydigan. | YAROG'SIZ | Qurolsiz, aslahasiz. Яроғсиз одам. |
| YEL | Havoning yer sathi bo'ylab harakati, shamol; ichakda hosil bo'ladigan gaz. | YIL | Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati; o'n ikki kalendar oyiga teng vaqt. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| YELDIRMOQ | [f.] Yugurtirmoq, choptirmoq. | YILDIRMOQ | Bog'langan hayvonning (ot) o'mini almashtirmoq; jildirmoq. |
| YEMAK | Yegulik narsa, yegulik, ovqat. | YEMOQ | Taom iste'mol qilmoq, ovqatlanmoq. |
| YETMAK | Ko'piklantirish uchun nisholda tayyorlashda ishlatiladigan o'simlik ildizi va undan tayyorlangan kukun. | YETMOQ | Ma'lum bir yerga, joyga bormoq; quvib, tenglashib olmoq; teng bo'lmoq; erishmoq. |
| YIG'IM | Xalqdan olinadigan pul yoki buyum; xizmat haqi. | YIG'IN | Yig'ilish, majlis. |
| YITMOQ | Yo'q bo'lib ketmoq; yo'qolmoq. | YETMOQ | Yurib, yo'nalib, ma'lum bir yerga, joyga, manzilga borib olmoq; tenglashib olmoq; tenglashmoq. |
| YO'Q | Mavjud emas. | YUQ | Idish yuzasida qolgan ozgina qoldiq. |
| YO'QLIK | Yo'q holat, yo'q ekanlik; mavjud emaslik. | YO'QLIQ | Borliqning aksi; tasavvur etilgan yo'q olam. |
| YOG'LI | Yog'i bor, seryog'. | YOQLI | bir yoqli Hal, yechim, ajrim. |
| YOLLAMOQ | Ma'lum shart bilan ishlatmoq, pul berib ishlatmoq. | YODLAMOQ | Esga olmoq, xotirlamoq, ko'z oldiga keltirmoq, xotirada saqlab qolmoq; suv, tuz va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga yod aralashtirmoq. |
| YOLQIN | O't, alanga; yog'du, nur. | YORQIN | Yorug', yog'duli; tiniq; aniq, ravshan. |
| YONDOSH | Yonma-yon turgan, yonma-yon o'rnashgan. | YONDASH | Yaqinlashmoq; yaqin kelmoq; moyil bo'lmoq. |
| YOQ | Tomon, taraf. | YOG' | Moy. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| YOQILG'I | Qaynatish, isitish uchun yoqiladigan ashyo. | YONILG'I | Yonadigan suyuq modda (benzin, kerosin, neft). |
| YOQMOQ | Alanga olmoq, olovlanmoq; ma'qul tushmoq. | YOG'MOQ | Havodan tomchi, zarra holida ketma-ket tushmoq. |
| YORIQ | Yorilgan, darz ketgan; oraliq, tirqish. | YORUG' | ' Yonib, qizib turgan narsadan tarqalgan yog'du, nur; ravshan, charog'on. |
| YORLIQ | Biror amal, unvon berilganligi haqida hujjat; mahsulot haqida ma'lumotlar yozilib, unga yopishtirilgan qog'oz. | YORLIK | Yor (xotin, sevikli kishi) bo'lishlik. |
| YOT | Begona; notanish. | YOD | Xotira, es; ximiyaviy element; meditsinada qo'llanadigan spirtli jigarrang eritma; dengiz o'simliklaridan olinadigan to'q kristall modda. |
| YUMUSH | Ish, xizmat, mehnat; vazifa, topshiriq. | YUMISH | Ochiq holdagi ko'zni yumish. |
| YUVINDI | Toza bo'lmoq, suv bilan ishqab kirini ketkazmoq. | YUVUNDI | Qozon-tovoq, idishlarni yuvishdan chiqqan, taom qoldiqlari aralash suv; sifatsiz suyuq ovqat, sarqit. |
| ZAFAR | [a.] G'alaba, yutuq, muvaffaqiyat. | ZA'FAR | [a.] Sariq tusli xushbo'y o'simlik; sarg'aygan. |
| ZARRIN | [f.] Zar qo'shib ishlangan; oltinrang; sariq. | ZARIN | xim. Kuchli ta'sir etadigan zaharlovchi modda. |
| ZIRAK | Quloqqa taqiladigan bezakli taqinchoq, sirg'a. | ZIYRAK | [f.] Hushyor, o'ta sezgir. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ZOT | [a.] Bir ajdoddan tarqalgan nasl, avlod; nasl-nasab; biror fazilati bilan ajralib turuvchi shaxs; jins, nav. | ZOD | [a.] Tug'ilgan; farzand; bola; arab alifbosidagi harf nomi. |
| OSHIQ-MOSHIQ | Eshik, deraza kabi narsalarni o'rnatish va ularning ochilib-yopilishi uchun xizmat qiladigan metall buyum. | OSHIQ-MA'SHUQ | [a.] Bir-birini sevgan yigit bilan qiz. |

Mundarija

So'zboshi....................................................................................................................3
Paronimlar haqida....................................................................................................4
O‘zbek tilidagi paronim so‘zlar lug‘ati...........................................................................7

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABJALOVA MANZURA ABDURASHETOVNA

# O'ZBEK TILIDAGI PARONIM SO'ZLAR LUG'ATI


Muharrir: B.R.Mengliyev
Musahhih: B.Botirov
Texnik muharrir: A.Bo'ryiev
Kompyuterda sahifalovchi: B.Eshmurodov

Terishga 16.12.2021-yilda berildi.
Bosishga 28.01.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 3,88 bosma taboq.
Buyurtma № 03. Times New Roman garniturasi.
Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 64 bet.

Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti.
Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi, 43-uy.